



MUHOJIRLAR MUHOJIRLARGA MASLAHAT BERISHADI



Rossiyada yashash va hayotga moslashish to'g'risida foydali maslahatlar

2-nashr

Sankt-Peterburg
2021-yil

MUNDARIJA

Safardan oldingi tayyorgarlik	3
Rossiyaga kelish.....	10
Muhajirlik qaydi	14
Patent.....	18
Hujjatlarni rasmiylashtirish.....	23
Ish izlash va ishga joylashish.....	27
Mehnat huquqlari himoyasi	32
Polisiya bilan hamkorlik	38
Turar-joy	43
Murakkab vaziyatlar	47
Salomatlik va tibbiyot	51
Bolaning Rossiyada tug'ilishi	55
Bolalar ta'limi	58
Vaqtincha yashashga ijozat (PBII).....	64
RF fuqaroligi.....	67
Mahalliy aholi bilan hamkorlik.....	70
Madaniyat ba hordiq	74
Qaltis holatlarda bepul yordam uchun qaerga murojaat etish zarur	77

Qadrli do'stlar!

«Muhojirlarning muhojirlarga maslahatlari» to'plamining navbatdagi soni Sizning qo'lingizda. Bu to'plamni tayyorlar ekanmiz, biz Rossiyada ishlayotgan chet ellik fuqarolardan bu erga yaqinda kelgan yo endigina mehnat muhojirligiga otlanishni rejalashtirayotgan kishilar bilan o'z tajribalarini o'rtoqlashishlarini, tavsiya berishlarini so'radik.

Bu erda Siz muhojirlilik qaydidan va ishga joylashishdan tortib polisiya va mahalliy aholi bilan hamkorlikkacha bo'lган ko'п masalalarda zarur maslahatlar bilan tanisha olasiz. Maslahatlarning har bir bobiga tahlilchilarining sharhlari, Rossiya qonunchiligiga oid ma'lumotlar, mu-loqot yo'llari joylashtirilgan.

Biz to'plam Siz uchun foydali bo'lishiga umid qilamiz. Sizga tajribangizda mazkur to'plam yaxshilik yo'lida asqotishini tilaymiz!

BF «PSP-fond» jamoasi

SAFARDAN OLDINGI TAYYORGARLIK



Eng muhimi - men buni takrorlashdan hech qachon charchamayman – rus tilini o'rganing! Siz uni qanchalik yaxshi bilsangiz, siz uchun shunchalik yaxshi bo'ladi. Rus tilini bilmasangiz, sizni aldonlar, sanoqsiz muammolar va hatto qullik kutishi mumkin. Tilni bilmasangiz, hatto yordamga chaqira olmaysiz (Baxtiyor).



Agar qandaydir tanishlaringiz sizni Rossiyaga ishlash uchun chaqirishsa, tezda yo'lga chiqishga otlanmang. Ish beruvchi bilan oldindan telefon orqali gaplashing. Hamma tafsilotlarni bilib oling va bu qanday tashkilot, nima bilan shug'ullanadi, yaxshiroq o'rganing. Internetdan muhajirlikka oid qonunlarni, nima qilish kerakligini o'qib, bilib oling. Hali uyingizda ekanligingizda, bularni oldindan bilib olganingiz yaxshi. Kimdir ish, pul va'da qilgach, Rossiya kelgan, oqibatda ko'chada qolgan odamlar yo'q emas. O'zingizni bo'shliq tomon urmang, pulsiz yo'lga chiqmang, hech narsa bilmasdan otlanmang (Islom).



Yaxshisi, har doim o'zingizga ishoning. Turar-joy masalasida menga Aziz, ishga joylashishda Jasur yordam beradi, Baxtiyor pul berib turadi, deya o'ylamang. Oldindan eng yomon holatni tasavvur qiling: buni eplay olmadim, bu o'xshamadi, bu erda ish yurishmadi. Nima qilasiz? (Karim).



Kichkina maslahat. O'zingiz bosh qotiring! Kimdir siz uchun o'ylashini kutmang. Kimdir sizning muammongizni hal etishiga va nimadir o'ylab topishiga umid qilmang. Inson osongina, tezda, o'zi bosh qotirmasdan va hech narsa qilmasdan, o'qimasdan va bilmasdan bir ish qilishni istasa, ko'p muammolar kelib chiqadi. Bunda ish yurishmaydi (Nurlan).



Yo'lga chiqmasingizdan oldin nega muhojirlikka ketayotganingizni yaxshilab o'ylab ko'ring. Bir voqeani hikoya qilib beraman. Yosh yigit O'zbekistonda, universitetda o'qirdi. Ikkinchı kursda o'qishni tashlab, Rossiyaga ketadi. Chunki hamma pul ishslash uchun borar, bu urfga aylangandi. U hujjatlarni vositachilardan sotib oladi va qurilishda yashirincha ishlab yuradi. Uni ushlab olishadi va ЦВСИГ ga o'tqazishadi. Unga keyin nima bo'lgани ni bilmayman. Albatta, uni uyiga jo'natib yuborishadi va Rossiyaga kelishi taqiqlanadi. Balki, uning o'qishi va ma'lumot olishi yaxshiroq edimi? Men hech kimni bu erga kelish niyatidan qaytarmoqchi emasman, har kim o'zi hal qilsin. Faqat ba'zan odamlar o'ylamay yo'lga chiqishadi va o'zlariga yomonlik qilishadi (Zilola).



Odam o'zi bilan pul olishi zarur. Kamida 45-50 ming rubl (bu Peterburg va Moskva uchun). Bu barcha hujjatlarni rasmiylashtirish, turar-joyga to'lash va dastlabki vaqtida yo'lkira va egulik uchun (Yulduz).



Rossiyaga pul ishslash uchun kelishni istayotgan kishilarda umumiy maslahat bermoqchiman. Rossiyada chiroyli va boy hayotni, ular xuddi ertakdag'i kabi yashashlari ni tasvirlab berayotgan tanishlaringizga ishonmahg. Odam o'z yutuqlari bilan maqtanadigan hollar tez-tez uchraydi. Va ular bu erda ham ko'p bo'lgan turli qiyinchiliklar, muammolar haqida aytishmaydi. Men Rossiyaga kelganimga allaqachon 5 yil bo'ldi va men Rossiyada muhojir bo'lish oson emasligini aytmoqchiman. Tilni yaxshi bilish zarur, muhojirlik qoidalarini bilish zarur, o'z mehnat huquqingizni bilishingiz zarur, va hammadan muhimi – hujjalarni rasmiylashtirish va uzaytirish, muddatiga rioya qilish, hatto bir kun ham kechiktirish mumkin emas. Men bu erga kelishlari taqilangan, pul ishlay olmagan, qaytaga qarzdor bo'lib qolgan, ish haqi to'lanmagan va boshqa qiyinchiliklarga uchragan odamlarni bilaman. Umuman olganda, Rossiyaga tirkchilik uchun borishdan oldin bu masalaga o'ta jiddiy yondashish zarurlagini aytmoqchiman (Asror).



Internet va ijtimoiy tarmoqlardan o'z xatolaringiz emas, balki boshqalarning xatosidan o'rghanish uchun muhojirlarni qanday aldashlari, tovlamachilik xillarini o'qing (Samir).



Agar sizning biron kasbingiz, hech qanday ma'lumotingiz bo'lmasa, Rossiyaga borishni maslahat bermagan bo'lardim. Malaka va kasbga ega bo'lмаган odamlar bu erda oz pul topishadi. Ishlab topgan pulingizni patent, tu-

rar-joy, oziq-ovqat, yo'lkira uchun berasiz va hech narsa to'play olmasdan, uyga pul yubora olmaysiz. Shuning uchun oldindan o'ylab ko'ring: siz nima ish qila olasiz, kim bo'lib ishlay olasiz, saytlardan bu kasblar uchun qancha ish haqi to'lashlarini qarab chiqing. Masalan, siz haydovchi bo'l-sangiz – bu allaqachon yaxshi. Sizda o'z mamlakatingizda haydovchilik huquqini olganingiz yaxshi, uni possiyanikiga almashtirasiz. Agar sizda haydovchilik huquqingiz bo'lmasa, unda avtomaktabda o'qishingizga to'g'ri keladi. (Latifjon)



Rossiyaga borgach qo'yadigan barcha qadamlaringizni hali uydalik paytingizdayoq bilib olsangiz yaxshi bo'ladi. Qilishingiz zarur bo'lgan har bir harakatni. Rasmiylashtirish zarur bo'lgan har bir hujjatni. Rossiyaga borgandan keyin bularning hammasini bir boshdan o'r ganmaslik uchun. Hali uyda ekanligingizda bularning hammasi haqida iloji boricha mufassal bilib oling. O'shanda sizga bu erda ancha oson bo'ladi. Men muhojirlikka yaxshiroq tayyorgarlik ko'rish kerak ekan deb aytmagan odamni hali uchratgan emasman. Va men rus tilini yomon bilgan va Rossiyaga kelgach bundan afsuslanmagan odamni hali uchratgan emasman (Zaxina).



TAHLILCHI SHARHI

Mehnat muhojirligi – bu jiddiy qadam, va qabul qilin-gan qarordan afsuslanmaslik uchun unga yaxshi tayyor-garlik ko'rish zarur.

Rossiyaga nima uchun va qaysi maqsadda borayotganingizni aniqlang. Mehnat muhojirligining barcha foydali va zararli tomonlarini taroziga qo'yib ko'ring.

Yaxshi o'yamasdan turib, bir qarorga kelmang. Tanishlaringizdan to'satdan kelgan takliflarga tez javob bermang. Ko'p tashvish chekmasdan katta pul topishni aytayotgan kishilarning aldoqchi takliflariga shubha bilan qarang.

Vositachilar va yollovchilar xizmatidan foydalan-mang, rasmiy ma'lumotlardan foydalaning – RFga mehnat muhojirligiga bemalol mustaqil otlanishingiz mumkin. Sizning barcha muammolariningizni hal etib berishga va'da beradigan vositachilarga to'liq ishonish esa, xavfli bo'lisi mumkin – bunda odam savdosi qurbaniga aylanish yoki bepul davlat xizmatlari uchun pul to'lash xatari mavjud.

O'z ishlaringizni tartibga keltiring – qarzlariningiz va echilmagan muhim huquqiy masalalarni oilangizga tashlab ketmang, shuningdek oilangizni «qora kun uchun» ma'lum miqdorda mablag' bilan ta'minlashga harakat qiling: sizning uyingizda uzoq bo'lmasligingiz qarindoshlaringiz va yaqinlaringiz uchun muammo tug'dirmasligi kerak.

Safarga chiqmasdan oldin ish beruvchi topishga va u bilan qonuniy ishga joylashish bilan kelishib oling

- Rossianing barcha mintaqalaridan ish beruvchilardan tushgan barcha rasmiy takliflarni trudvsem.ru saytidan topish mumkin – bu Rossiya Federasiyasi Mehnat va bandlik vazirligining umumpossiya bo'sh o'rinalar baza-sidir. Bundan tashqari, RFning turli mintaqalarida muhojirlarni tashkiliy ravishda to'plashni qo'llab-quvvatlaydigan turli dasturlar amal qiladi.

Qabul qiluvchi tomon bilan aloqada bo'ling – turar-joy taklif etadigan RFda yashaydigan Rossiya yo chet el fuqarosi yoki ish beruvchi bilan. Qabul qiluvchi tomon siznu muhojirlik qaydiga qo'yishi va sizni turar-joy bilan ta'minlasi zarur – siz va sizning yaqinlaringiz qaerga borayotganingiz va qaerda yashashingizni oldindan bilgalariningiz yaxshi.

Rus tili bilimingizni yaxshilang - siz rus tilini mahalliy aholi, ish beruvchi, davlat hokimiyati maqomotlari xodimlari bilan mustaqil muloqot qila olishga etarli darajada o'r ganishingiz zarur. Tilni bilmasdan turib, Rossiyada ish izlash, nurar-joyni ijaraga olish, hayotingizni yo'lga qo'yish va yordan so'rab murojaat qilish qiyin bo'ladi.

Sizga Rossiyaga kirish taqiqlangan emasligini tek-shirib ko'ring – buning uchun Rossiya IIVning rasmiy xizmatidan foydalanish zarur: <http://servisi.givm.mvd.rf/info-service.htm?sid=3000>. Agar siz ishga joylashish jarayonida ilgari vositachilar xizmatidan foydalangan bo'lsangiz, Sizga qalbaki hujjatlar tayyorlab bergen bo'lishlari ehtimoldan xoli emas, va Siz taqiq ostiga tushishingiz mumkin.

Rossiyada ishslash, Rossiya muhojirlik qonunchiligi, o'tish zarur bo'lgan jarayonlar haqida iloji boricha ko'proq bilib olishga harakat qiling. Internetdan muhojirlar Rossiyadagi hayotlari borasida nimalar yozishayotganini o'qing. Manzarani to'liq tasavvur etish uchun faqat ijobiy emas, balki salbiy munosabatlarni ham o'r ganing.

Qaysi mintaqaga borishingizni hal etganingizdan so'ng, u er haqida ko'proq bilishga harakat qiling. Tabiat, naqliyat, narxlar, bo'sh ish joylari – oldindan

qancha ko'p bilsangiz, borgan eringizda kutilmadan tashvishlar shunchalik kam bo'ladi.

Rossiyada Sizga yordam beradigan davlat va ijtimoiy tashkilotlar bilan muloqot yo'llarini bilib oling

- bular RFning davlat maqomotlari, shuningdek Sizning mamlakatingiz vakolatxonalari bo'lishi mumkin: konsullik muassaasalari yoki muhojirlik xizmati vakolatxonalar. Shuningdek Rossiya minraqalarida muhojirlarga yordam beradigan ijtimoiy tashkilotlarni bilish yaxshi – ular malakali va bepul yordam ko'rsatishadi.

Rossiya muhojirlik qonunchiligini o'rganing, uni buzmaslik uchun mas'uliyatli bo'lishga alohida ahamiyat bering.

Foydali muloqot qo'llari:

guvm. mvd. rf – Главного управления по вопросам миграции МВД России ning rasmiy sayti

trudvsem.ru – bo'sh ish o'rnlari umumrossiya portalı
- «Работа в России»

servisi.guvm. mvd. rf/info-service.htm?sid=3000 – ГУВМ МВД РФ tarmog'i bo'yicha Rossiyaga kirishni taqiqlashni tekshirish

migrussia.ru – «Migrasiya i migranti» mintaqalararo axborot portalı: RF mintaqalaridagi muhojirlar uchun foydali ma'lumotlar.

migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru – «Добро пожаловать в Санкт-Петербург!»: Sankt-Peterburg Hukumatining muhojirlar uchun internet-resursi

migrantlenobl – «Добро пожаловать в Ленинградскую область!»: Leningrad viloyati Hukumatining mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolari uchun mobil ilovasi va sayti

ROSSIYAGA KELISH



Agar Siz ishslashga kelgan bo'lsangiz, albatta muhojirlik kartasida kelishdan maqsad – ish deb ko'rsatishingiz zarur. Agar Sizda boshqa bir maqsad bo'lsa, ishslash uchun patent rasmiylashtira olmaysiz. Men odamlarning muhojirlik kartasida xatoliklar bo'lgani borasidagi voqealarni ko'peshitganman (Irina).



Hozir chegaralary opiqligi bois odamlar Rossiyaga ishslash uchun qaytib kela olishmayapti. Masalan, yil boshida ketishgan, keyin chegaralar yopilgan va endi qaytib kela olishmayapti. Ayrimlari kelishning boshqa yo'llarini izlashmoqda, masalan, boshqa bir mamlakat orqali. Men ayrim yurtdoshlarimning Turkiya orqali kelishga uringanlarini bilaman. Yoki tibbiyot yo'li bilan – davolanish uchun kelishmoqchi bo'lishgan. Bular ish bermaydi. Qaysi mamlakat orqali kelishingizning farqi yo'q, kelish mumkin emasmi, ortga qaytarib yuborishadi. Va agar o'ylab topilgan sababga ko'ra kelsangiz ham, patent berishmaydi. Chegaralar ochilishini kutmoq kerak, boshqa iloj yo'q (Shavkat).



Muhojirlarga aytmoqchiman, ba'zan kelishga taqiq xato ham bo'ladi. Muhimi, buning ustidan ayni vaqtida – qaror chiqarilganidan so'ng uch oy davomida shikoyat qilish mumkin (Rahmatullo).



Agar sizga Rossiyaga kelishni taqiqlagan bo'lishsa, va siz buning qonuniy ekanligini, qonunni buzganiningizni bilsangiz, taqiqni olib tashlashni va'da qiladigan huquqshunoslarga pul bermang. Har qanday vaziyatda ham yordam bera olishini aytadigan huquqshunoslar bor. Ular uchun pul to'lashsa bo'lgani. Bu – yolg'on. Agar siz muhojirlik qoidalarini buzgan bo'lsangiz va qora ro'yxatga tushgan bo'lsangiz, va siz o'zingizni hech bir oqlay olmasangiz, taqiqni hech qanday pul bilan olib tashlab bolmaydi. Taqiq muddani tugashini kutish kerak, tamom (Shuhrat).



Bolangizni muhojirlik kartasida kelishdan maqsad ko'rsatilishi zarur – xususiy, agar sizning maqsadingiz ish bo'lsa, bolanikida ish deb ko'rsatish shart emas (Yulduz).



TAHLILCHI SHARHI

Rossiyaga kelish uchun sizga qanday hujjatlar zarurligini oldindan aniqlab oling. Sizga taqiq qo'yilmaganini tekshiring. Bunday bo'lishi mumkin, masalan, agar avval siz muhojirlik qonunchiligini buzgan bo'lsangiz yoki ma'muriy huquqbuzarligingiz bo'lsa. Kelishga taqiq bor-yo'qligini IIV saytida tekshirib ko'ring (<http://servisi.guvm.mvd.rf/info-service.htm?sid=3000>)

Sizga o'z mamlakatingizdan chiqish uchun cheklov bo'lmaydi: bunday cheklovlardan sud qarori, qarzlar, to'lanmagan jarimalar bo'lishi mumkin.

Kelish paytida amaldagi xorijiy passportingiz bo'lishi zarur: passportingsiz RFda bo'lishni rejalashtirgan muddat uchun amalda bo'lmosq'ini hisobga olganingiz yaxshi.

Sizda ataylab qilingan jinoyat uchun sudlanganlik dog'i qolmagan bo'lishi zarur. Siz ijtimoiy xavfli kasallik bilan og'rimagan bo'lishingiz zarur (jumladan, VICH-infeksiya, tuberkulyoz, jinsiy yo'llar orqali o'tadigan yuqumli kasalliklar, shuningdek, korohavirus COVID-19) – bunday kasalliklar bo'lgan taqdirda ishslash uchun patent olishga tibbiy tekshiruvdan o'ta olmaysiz, bunga muvofiq RFda qonuniy islash mumkin bo'lmaydi;

Chipta sotib olishdan oldin RF ga kirish rejimining qandayligini, unda qaysi toifadagilarga ruxsat berilganini bilib oling. Pandemiya bilan bog'liq cheklovlar vaqtida Rossiyaga kelish cheklandi. Pandemiya vaqtida Rossiyaga kelish tartibi haqida RF FXXning chegara xizmati saytidan bilish mumkin (<http://ps.fsb.ru/general/info/covid.htm>)

Agar ishga joylashishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, uydirma sabablarni ko'rsatib kelmang. Agar sizning safar ringizdan maqsad xususiy yo'lib bo'lsa, rasmiy tarzda ishga joylasha olmaysiz. Agar siz tanishlaringiz oldiga, o'qishga kelayotgan bo'lsangiz, va ishlamasligingizni bilsangiz, kelishdan maqsadingizni «o'qish» deb ko'r-sating.

18 yoshga to'limagan bolalar uchun safardan maqsad xususiy deb ko'rsatiladi.

Rossiyaga kelish paytida sizning pasportingiz va tibbiy sug'urta polisi bo'lishi zarur, vizali davlatlar fuqaro-

lari uchun qo'shimcha ravishda viza talab qilinadi. Unutmang, polis bo'lmasa, sizni mamlakatga kiritmasliklari mumkin.

Sizning mamlakatingiz xorijda bo'lgan fuqarolari huquqlarini himoya qilishi shart – buning uchun sizga Rossiyaga kelgan eringizda konsullik qaydiga qo'yishni tavsiya etamiz.

Rossiya qonunchiligini va muhojirlik sohasi hamda mehnat munosabatlaridagi asosiy qoidalarni o'r ganing: masalan, MDH mamlakatlari fuqarolari RF hududida ishslash uchun patent rasmiylashtirmasdan 6 oy ichida 90 kundan ortiq tura olmaydilar. 6 oy davomida siz Rossiyaga bir necha marta kelib-ketishingiz mumkin, lekin sizning Rossiyada umumiy tirish vaqtingiz 90 kundan oshmasligi zarur. RFga ishslash uchun kelgan chet el fuqarosi muhojirlik kartasida safardan maqsadini albatta – «ish» deb ko'rsatishi zarur. Sagarning maqsadi bunday ko'rsatilmasa, Rossiyada rasmiy ravishda ishga joylashish mumkin emas.

Foydali muloqotlar yo'llari:

<http://ps.fsb.ru> – Пограничной службы ФСБ России sayti

<https://russiamedtravel.ru/> - Минздрава РФ davolanish uchun kelayotgan chet elliklar uchun rasmiy sayti.

<https://studyinrussia.ru/> - Rossiyadagi chet ellik studentlar uchun sayt– RFga o'qish maqsadida kelish tartibi.

https://mvd.ru/mvd/structure1/Glavnie_upravlenija/guvn - Главное управление по вопросам миграции МВД России

MUHOJIRLIK QAYDI



Kelganingizdan so'ng, 7 kun davomida muhojirlik qaydiga qo'yish zarur (boshqa mamlakatlar uchun bu muddat turlich bo'lishi mumkin – kimga 15 kun, kimga 30 kun). Bu 7 kun siz Rossiya chegarasini kesib o'tgan lahzangizdan hisoblanadi, siz yashamoqchi bo'lgan joyga etib borgan vaqtidan emas. Agar siz Moskvaga uchib kelib, masalan, tanishlaringiznikida bir necha kun qolsangiz va keyin boshqa shaharga borsangiz, bu kunlarning hammasi sanaladi. Erda yuradigan naqliyotda kelsangiz ham xuddi shunday – chegaradan o'tdingizmi, kun sanog'i boshlanadi (Baxtiyor).



Muhojirlik qaydimi uning muddati tugashidan oldin uzaytirish zarur. Muddat tugagach, ertasi kuni uni uzaytirish uchun borish mumkin emas. Agar patent bilan ishlayotgan bo'lsang, patent amal qiladigan muddatga uzaytirasan. Muddatlarni kuzatib boring! Muddatlarni o'tkazib yuborish tufayli odamlar noqonuniy ishlaydigan bo'lib qolishadi va ular uchun barcha muammolar boshlanadi (Yulduz)



Ko'pchilik bir narsani bilmaydi: bir erda registrasiya qilishadi, boshqa erda yashashadi. Bu – qonunni buzish. Agar buni oshkor etishsa, mamlakatdan chiqarib yiborishlari mumkin (Zoir).



Muhojirlik qaydimi uning muddati tugashidan oldin uzaytiring, masalan, bir hafta ilgari. Umuman, hujjalarni to'g'rilashni hech qachon oxirgi lahzagacha cho'zib yurmang (Gulnora).



Albatta, patentga oldindan to'lab qo'yish uchun har doim ham pul bo'lavermaydi. Lekin har oyda muhojirlik qaydini cho'zmasa bo'ladi. Agar siz uch oyga to'lagan bo'l-sangiz, uch oylik hisobingiz bo'ladi, agar bir yilga to'lasangiz – bu holda bir yil xotirjam yashaysiz (Rahmatullo).



TAHLILCHI SHARHI

Rossiyaga kelganingizdan so'ng, siz kelgan eringizda muhojirlilik qaydiga qo'yishingiz zarur. Muhojirlarning turli toifalari uchun muhojirlilik qayduga qo'yishning turlicha muddatlari belgilangan. Evroosiyo iqtisodiy ittifoqi (Qozog'iston, Armaniston, Qirg'iziston, Belarus) fuqarolari uchun 30 kunni tashkil etadi. Tojikiston fuqarolari uchun – 15 kun. Qolgan boshqa mamlakatlar uchun – 7 kun.

Muddat Rossiya chegarasi kesib o'tilgan vaqt dan boshlanadi.

Chet ellik fuqarolarni muhojirlilik qayduga qo'yishni qabul qiluvchi tomon amalga oshiradi:

- RF fuqarosi, siz kelgan mintaqada doimiy registrasiyadan o'tgan;

- chet ellik fuqaro , RF hududida doimiy yashovchi (turar joyida doimiy registrasiyasi bor, yashash huquqi);
- chet ellik fuqaro, shu jumladan, muhojirning o'zi, RF hududida xususiy turar-joyi bo'lgan va uni amalda yashash uchun bergen;
- huquqiy shaxs: tashkilot-ish beruvchi, mehmonxona. Maxsus varaqqa-bildiruvni to'ldirib, muhojirlik qayduga qo'yish mumkin:
 - Управления по вопросам миграции ГУ МВД России hududiy bo'linmalarida;
 - Многофункциональных Центрах предоставления государственных услуг (МФЦ) da;
 - ФГУП «Почта России» bo'linmalarida.

Siz amalda kelgan eringizda muhojirlik qaydiga qo'yishningiz (registrasiyadan o'tish) zarur. Kelgan eringiz albatta turar-joy bo'lmosh'i zarur. Agar siz bir erda registrasiyadan o'tgan bo'lsangiz, lekin boshqa erda yashayotgan bo'lsangiz, bu qonun buzish hisoblanadi, buning uchun jarima to'lashingiz mumkin.

Unutmang, siz o'z vaqtida muhojirlik qayduga qo'yish va uni muntazam uzaytirish uchun mas'uliyatga egasiz.

Muhojirlik qayduga qo'yish uchun qabul qiluvchi tomon bilan birga murojaat etish zarur. Agar siz yotoqxona yoki mehmonxonaga, jumladan ish beruvchi tomonidan berilgan, turgan bo'lsangiz – qonunga ko'ra sizni kelgan paytingizdan keyin 1 ish kuni davomida muhojirlik qayduga qo'yishlari zarur. Siz uning hududida yashayotgan yotoqxona yoki tashkilot sizning registrasiyangizni nazorat qilib borishi va zarur bo'lganda uni uzaytirishi kerak.

Agar siz kelgan joyingizni o'zgartirsangiz – yangi manzil bo'yicha 3 ish kuni davomida muhojirlik qayduga qo'yish zarur. Muhojirlik qayduga yangi qo'yilganda, ayni o'sha hujjatlarni ko'rsatmoq zarur, Rossiada 2 oy ishlagandan keyin esa – shuningdek ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi nusxasi ilova qilinadi.

Muhojirlik qaydu muddati patent asosida uzaytirilishi mumkin. Bunday holda registrasiya patentning amal qilish muddatiga qarab uzaytirililadi.

EOII fuqarolari uchun registrasiya mehnat shartnomasining amal qilish myddatiga ko'ra uzaytiriladi.

Bolalar registrasiyasi ota-onalari registrasiyasi muddatiga ko'ra uzaytiriladi.

Registrasiya muddatining o'tib ketishi qonun buzilishi sanaladi, buning uchun jarimaga tortish va mamlakatdan chiqarib yuborish han mumkin.

Foydali muloqotlar yo'llari:

Varaqa-bildiruvni quyidagi manzildan ko'chirib olish mumkin: <https://мвд.рф/Deljatelnost/emvd/guvm/muhojirlik-qayduni-amalga-oshirish>

<http://migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru/migracionnoe-zakonodatelstvo/postanovka-na-migracionnyj-uchet/> - Sankt-Peterburgda muhojirlik qaydu tartibi

<https://migrantlenobl.ru/migracionnyj-uchyot/> - Lenigrad viloyatida muhojirlik qaydu tartibi

<https://www.youtube.com/watch?v=JE5c-6XuF2o&t=9s> – videorolik БФ «ПСП-фонд» - «Migrasion uchet»

PATENT



Panent olish uchun 1 oy beriladi, va bu bir oyga panent olish kiradi. Buni nazarda tutish zarur. Va yana patent olgandan so'ng ikki oydan kechiktirmasdan ishlay boshlash zarur (Islom).



Har doim hujjatlarni tekshiring. Har bir kishi xato qilishi mumkin. Agar patentdagi siz haqingizdagi ma'lumotlarda xato bo'lsa, mazkur patentnni bergen bo'limga murojaat qilish zarur, o'zingiz bilan patent uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni oling. Ular xaton ni bepul to'g'rilab berishadi (Umid).



Agar siz patentni bir mintaqadan olgan bo'lsangiz va u bilan bir mintaqada ishlayotgan bo'lsangiz va keyin boshqa mintaqada ishlashni istasangiz, boshqa mintaqada uchun yangi patent sotib olish zarur. Menda shunday bo'lgan, mening tashkilotim turli mintaqalarda faoliyat yuritadi, men avval Peterburgda ishladim, kein esa, Viborgda (Sherzod).



Albatta o'zingiz ishlaydigan mintaqada va o'zingiz ishlaydigan ixtisos bo'yicha patent sotib oling. Masalan, sizning patentingiz Leningrad viloyati bo'yicha, lekin siz Peterburgda ishlaysiz. Bu mumkin emas. Ko'pchilik

Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati boshqa-boshqa mintaqalar ekanligini bilmaydi (Salohiddin).



Agar siz patent bo'yicha ishlayotgan bo'lsangiz va boshqa mintaqaga ish bo'yicha komandirovkaga yuborishsa, o'sha ikkinchi mintaqaga uchun patent rasmiylashtirish zarur. Qo'qsa, bu qonunni buzish bo'ladi (Aziz).



Rossiyada kim bo'lib ishlashtingizni oldindan aniq biling. Bu zarur ixtisos uchun patent sotib olishda juda muhimdir. Ko'pincha odamlar bir ixtisos uchun patent rasmiylashtirishadi, lekin so'ngra butunlay boshqa ixtisos bo'yicha ishlashtirishadi. Ular agar patent haqini vijdonan to'lashsa, barcha qonun talablarini bajarishgan va qanday ish bo'lmasin, shug'ullansa bo'laveradi, deb oylashadi. Agar siz ko'chada polisiyachiga patentingizni ko'rsatsangiz, u, albatta, sizning qaerda ishlashtingizni bilmaydi. Lekin sizni ish joyingizda tekshirishsa, va siz patent bo'yicha ishlamayotganingizni aniqlashsa – yomon bo'ladi (Latifjon).



TAHLILCHI SHARHI

Patent siz tanlagan mintaqada yashash va tanlagan ixtisosingiz bo'yicha ishslash huquqingizni tasdiqlaydigan hujjat hisoblanadi.

Patent haqini har oy to'lash mumkin, bir necha oy oldin (12 oygacha) to'lab qo'ysa ham bo'ladi.

Diqqat qiling: patent albatta siz ishlaydigan ixtisos bo'yicha rasmiylashtirilishi zarur. Boshqa ixtisos bo'yicha ishslash qonunbuzarlik hisoblanadi.

RF da ko'plab vijdonsiz vositachilar faoliyat yuritishadi (tashkilotlar va alohida fuqarolar), ular patent rasmiylashtirilishda pullik xizmatni taklif etishadi. Ehtiyyot bo'ling, aldanib qolmang:

- **«xususiy shaxslar» xizmatidan foydalanmang –** yurtdoshisringiz, brigada boshliqlari, vositachilar, va hatto sizga shaxsan tanish bo'lgan odamlar xizmatidan: ko'pincha aynan ular qalbaki hujjatlar rasmiylashtirilishadi;
- agar Siz vositachi tashkilotga hujjatlarni rasmiylashtirilishnii so'rab murojaat qilsangiz, **albatta ko'rsatiladigan xizmat uchun shartnomaga tuzing.** Bu shartnomalarni diqqat bilan o'qing – ularda albatta xizmatlar nomlari ko'rsatilishi zarur (hujjatlar tayyorlash va olishdagi hamkorlik), xizmat narxi, o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun mas'uliyat, tashkilot muhri va ish boshqaruvchining imzosi qo'yilishi zarur;
- **hujjatlariningizni qo'lingizga olmasdan turib ko'r-satilgan xizmatlarga oid aktga qo'l qo'y mang.** Diqqat qiling – buhday aktlar asosiy sgartnomaga matniga kiritilishi zarur;
- vositachilik xizmatini to'lay turib, Sizning pulingizni vositachi-tashkilot olganini tasdiqlaydigan **cheklarni albatta talab qiling.** Cheklardagi mablag miqdori to'g'ri ko'rsatilganini nazorat qiling;

- hatto vositachilarga murojaat qilganingizda ham, **Siz SHAXSAH nibbiy ko'rikdan o'tishingiz, rus tili, tarix va qonunchilikka oid test topshirishingiz shart.**

Hujjatlarni topsgirgan paytingizda Siz daktiloskopik registrasiya jarayonidan (barmoq izlarini olish) o'tishingiz va fotosuratga tushishingiz zarur. Agar vositachi buni talab etmasa, u Sizni aldayotgan bo'ladi;

- **biron-bir tashkilot yoki xususiy shaxs hujjatlarin-gizni Siz uchun ola olmaydi.** Hujjatlingizni mintaqangizdagi MMB mehnat muhojirligi masalalariga oid bo'limidan faqat **SHAXSAN** o'zingiz olishingiz mumkin.

RF ning har bir mintaqasida o'zining rasmiy muhojirlilik markazi bor, ularda ishslash uchun patent rasmiylashtirish mumkin. Ko'pchilik muhojirlik markazlari yagona daricha uslubida ishslashadi va muhojirga barcha zarur xizmatlarni ko'rsatishadi. Ishga patent rasmiylashtirish narxi mintaqaga va ko'rsatilayotgan xizmatlarga bog'liq va sezilarli farq qilishi mumkin: masalan, Moskvada patent rasmiylashtirish 14000-18000 rublga tushishi mumkin, Sankt-Peterburg va Leningrad filoyatida esa-24000-27000 rublga.

Ishlash uchun patentning har oylik to'lov miqdori RF-ninh turli mintaqalarida farq qiladi va har yili har bir mintaqaga hukumati tomonidan belgilanadi – e'tiborli bo'ling, o'zgarishlarni kuzatib boring.

Agar siz bir mintaqada ishlagan bo'lsangiz va keyin boshqa mintaqada ishlay boshlasangiz, bu mintaqada joriy ishingiz uchun yangi patent rasmiylashtirishingiz zarur. Boshqa mintaqadan patent borligi yangi mintaqada ishslash uchun qonuniy asos bo'lmaydi.

Agar siz ayni paytda ishlamayotgan bo'lsangiz, Rossiyada turish uchun boshqa asosingiz bo'lmasa, baribir patentni uzaytirish zarur.

Patentni olganingizdan so'ng 2 oy davomida ish beruvchi bilan mehnat shartnomasi nusxasini mintaqangizdagi отдел по вопросам трудовой миграции УВМ ГУ МВД РФ ga yuborishingiz zarur. Buni отделении УВМ ГУ МВД РФga buyurtma xat bilan, topshirganlik haqidagi bildiruv bilan jo'natishingiz, yoki shartnomani shaxsan topshirishingiz mumkin.

Patentingizni va to'lov haqidagi cheklarni avaylab asrang bu muhim hujjatlarni yo'qotishga yo'l qo'y mang. Ularning kseronusxasini tayyorlab qo'yaningiz yaxsir-oq. Agar siz baribir patentni yo'qotib qo'ysangiz, bundan so'ng 3 kun orasida rasmiylashtirilgan erga murojaat qilib, uni tiklashingiz mumkin. Agar siz to'lov haqidagi cheklarni yo'qotib qo'ysangiz, siz to'lov amalga oshirilgan bankka murojaat qilib, ularni tiklashingiz mumkin.

Muloqotlar va axborot resurslari

Rossiya IIV Muhoirlik masalalari bo'yicha bosh boshqarmasining sayti guvm.mvd.ru .

Управления по вопросам миграции ГУ МВД России:

- по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской обл.:** 8 (812) 573-37-22, 8 (812) 573-30-02, <https://78.mvd.ru/ms>.
- по г. Москва:** 8 (495) 587-07-87, <https://77.mvd.ru/ms>;
- по Московской обл.:** 8 (926) 224-74-28, <https://uvm.50.mvd.ru>;

Многофункциональный миграционный центр

- г. Москва: 8 (495) 777-77-77; <https://mc.mos.ru/ru/>; Московская обл.: 8 (926) 956-33-33; <http://emcmo.mosreg.ru>
- г. Санкт-Петербург и Ленинградская обл.: 8 (812) 318-01-22; <http://spb.pvsmvd.ru>

Миграционные центры – филиалы ФГУП «Паспортно-визовый сервис МВД России» <http://pvsmvd.ru/?q=node/15>

<https://www.nalog.ru> – сайт **Федеральной налоговой службы РФ**: ИНН bo'lsa, yil davomida xususuy shaxslar daromadidan(НДФЛ) ortiqcha olingan soliq chegirmasini soliq xizmatidan undirish mumkin – ya'ni patent bo'yicha to'loving bir qismini qaytarib olish.

HUJJATLARNI RASMIYLASHTIRISH



Bu ishni foim o'zingiz qiling, hamma narsani tushunib oling, vositachilarga murojaat etmang. Albatta siz unga ko'ra ishlaydigan ixtisos bo'yicha patent sotib olish zarur. Shuning uchun avval qaerda, kim bo'lib ishlappingizni aniq hal qilib oling. Yo'qsa, odam bir ixtisos bo'yicha patent sotib olishi, so'ng boshqa bir ishni qilishi mumkin, norasmiy, shartnomasiz. Agar tekshirish bo'lsa, qoida qo'pol tarzda buzilgani aniqlanadi (Fotima).



Bir narsani aytmoqchiman. Siz Rossiyaga kelganingizdan keyin tanishlaringiz paydo bo'la boshlashadi, ular menda bir tanishim bor, u bilan tanishtirib qo'yaman, u senga hamma hujjatlarni to'g'rilab beradi, deya qulog'ingizgga qoqa boshlashadi. Bu tez va arzonga tushadi, hech erga borib yurmaysan, navbatda turmaysan, deyishadi. Ko'plar bu gaplarga aldanib qolishadi. Keyin ularni polisiya to'xtatadi, tekshiradi. Va oxiri nima bo'ladi? To'ppa-to'g'ri – deport! Ular shikoyat qila boshlashadi, hamma hujjatlarim bor edi-ku, nega Farhodniki joyida, men bo'lsam, muammolarga uchradim? Demak, bu erda ikki variant bor, yo tekshirish paytida Farhodning omadi chopgan, yoki uning hujjatlari rasmiy yo'lda qilingan (Baxtiyor).



Noqonuniy tarzda ishlashga kelgan yurtdoshlar-imni bilaman. Ular ko'pincha ko'p narsani bilishmaydi va kelishgach, vokzaldoyo'q qulogqlariga kimlardir lag'mon ilishadi, hamma hujjatlarni arzonga qilib berishlarini aytishadi. Ular bu yaramas noqonuniy davraga tushib qolishadi va yndan chiqa olishmaydi.

Ayrimlar esa, tejayapman, deb o'ylab, noqonuniy ishlashadi. Demak, patentga to'lamasam, bu pulni tejayman, degan xayolga borishadi. Bu – noto'g'ri. Ko'p narsa yutmaysan. Hozirda yaxshi ish beruvchilar noqonuniy ishchilarni olishmaydi. Ya'ni haligilar ularni har bir lahzada aldab ketadigan vijdonsiz kimsalar qo'lida ishlashlariga to'g'ri keladi. Uo o'ta og'ir ishlarda va o'ta

yomon sharoitlarda ishlashadi. Va yana ish beruvchilar polisiua chaqirib, topshirib yuboraman, deya tahdid qilishadi. Va sen bu odamlarga to'liq qaram bo'lib qolasan (Shuhrat).



Hujjatlaringiz yo'qolib qolmasligi uchun ularni ehtiyyot qiling. Agar registrasiyani yo'qotsangiz, uni tiklash mumkin. Buning uchun muhojirlik qaydi rasmiylashtirilgan muhojirlik bo'yicha bo'limga borish zarur. Patentni ham muhojirlik markazida tiklash mumkin, buning uchun uning dublikatini berishni so'rab ariza yozasiz. Agar patent uchun chekni yo'qotsangiz, uni ko'r-satish zarur bo'lsa, bunda u to'langan bahkka borasiz. Lekin hech narsani yo'qotmagan yaxshi (Fotima).



Meni mamlakatdan chiqarib yuborish qarori bor edi, noqonuniy qaror. Sud orqali uni bekor qilinishiga muvaffaq bo'ldim. Lekin bazada qora ro'yxatda qoldim. Ma'lumotlar etib bormaydigan hollar ham bo'lishi mumkin. Sud qarorini olib muhojirlik nazorati bo'limiga borishga to'g'ri keldi. U erda qora ro'yxatdan o'chrib tashlashdi (Otabek).



Hamma hujjatlarni o'zingis tayyorlang. Bu arzon va sizni aldashmaydi. Avvaliga bu murakkab va tushunarsiz ko'rinishdi. Va keyin o'zing hammasiga tushunib olasan va senga hech qanday yordamchi kerak bo'lmaydi. Muhimi buni tushunib oling – Rossiyada

barchf hujjatlar va barcha ma'lumotlar electron bazada mavjud. Va polisiya sizning hujjatingiz haqiqiy yo qakbakilagini juda oson tekshirib ko'ra oladi. Siz norasmiy sotib olgan hujjatlar, vositachilar ularning hatto yaxshi ekanligini aytgan bo'lsalarda, bu bazaga kiritilmaydi. Va alдов tez aniqlanadi. Agar sizda shunday hujjatlar bo'lsa, ancha qiynalib qolasiz (Dilshod).



TAHLILCHI SHARHI

Hamma hujjatlarni o'zingiz rasmiylashtiring, vositachilar xizmatidan foydalanmang. Vositachilar ko'pincha muhojirlarni aldashadi, ulardan katta pul olib, qalbaki hujjatlar tayyorlab berishadi. Unutmang, sizda qalbaki hujjatlar topishgan holda, barcha javobgarlik sizning zimmangizga tushadi.

Siz ishslash uchun patentning haqqoniyligini mazkur saytning Управления по вопросам миграции ГУ МВД России: <https://гувм.мвд.рф> «Сервисы по вопросам миграции» - «Проверка действительности разрешений на работу и патентов на осуществление трудовой деятельности иностранными гражданами и лиц без гражданства» bo'limidan tekshirib ko'ra olasiz.

Polisiya xodimlari qalbaki hujjanlarni tez tanib olishadi. Buning uchu ular electron bazani tekshirib ko'rishlari etarli. Vozitachilar sizni bazaga kiritilgan deb

ishontirgan bo'lsalarda, qalbaki patentlar, muhojirlik kartalari bu bazaga kiritilmaydi.

Bundan tashqari, vositachilar aslida bepul va juda arzon turadigan xizmatlar uchun pul olishlari mumkin.

Hujjatlar yo'qotilgan paytda ularni bergan muassasa-ga iloji boricha tezroq murojaan qilib, tiklash mumkin. Sankt-Peterburgda topilgan hujjatni qaytarish yoki uni yo'qatganlik haqida ma'lumotnomma olish uchun murojaan qilish mumkin: Городской центр утерянных документов (стол находиток) ул. Большая Монетная, га, 16, 8 (812) 336-51-09

ISH IZLASH VA ISHGA JOYLASHISH



Ko'pchilik agar tanishlar bir ishni maslahat berishsa, uni albatta ishonchli variant deya hisoblashadi. Agar siz tanishingiz orqali ish topgan bo'lsangiz, hali bu ish beruvchining yaxshi ekanliginy anglatmaydi. Sizning tanishlaringiz adashishlari mumkin (Mehribon).



Agar siz haydovchi bo'lib ishlar moqchi bo'lsangiz, ogohlantirib qo'yishim mumkin, o'z mamlakatingizdagi tajribangiz Rossiyada unchalik ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Muhimi, aynan Rossiyada haydovchlik tajribangiz bo'lishi kerak. Ayrim taskkilotlar uch yillik tajriba bo'lishini istashadi, o'z yurtingizda 15 yil haydovchilik qilganingiz esa, hech bir ta'sir ko'rsatmaydi (Nuriddin).



Haydovchi bo'lib ishlar oqchi bo'lganlar uchun. Rossiyada haydovchilik guvohnomasi olish zarur. Agar sizda o'z mamlakatingizda berilgan amaldagi haydovchilik guvohnomasi bo'lsa, imtihon topshirganingizdan so'ng sizga Rossiyaning haydovchilik guvohnomasini berishadi. Siz nazariya va haydovchilikdan imtihon topshirasiz. Men o'zim topshirdim. Ikkinchi martada o'tdim. Agar haydovchilik guvohnomasi eskirgan bo'lsa yo yo'qolsa, unda Rossiyada avtomaktabda o'qish va imtihon topshirishga to'g'ri keladi. Avtomobilda xususiy maqsadlarda yuradigan, islamaydigan kishilar uchun guvohnoma almashtirish shart emas (Karim).



Sen patent bo'yicha haydovchi bo'lib ishlaysan. Lekin u tashkilotda, masalan, omborchi bo'lib ishlashni so'rashadi. Bunday bo'lishi mumkin emas ekan. Bu allaqachon – qonun buzilishi. Agar buni ahiqlashsa, yomon bo'ladi (Bahrom).



Muhojirlar ko'pincha turli mintaqalarda ishlash muammolariga duch kelishadi, ularni ish beruvchi yuboradi. Menda RVP bor, RVP bilan boshqa mintaqalarga ishga yuborishlari mumkin, lekin buning kunlar bo'yicha chekllovlar bor (Mahmud).



TAHLILCHI SHARHI

RFda noqonuniy ishslash – jiddiy huquqbuzarlik. Noqonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish jarima bilan jazolanadi. O'z huquq va burchlaringizni bilish va o'zingizni zarur bo'limgan xatarli tavakkallardan saqlash muhimdir.

Rossiyada ishga joylashishni rejalshtirayotib, talab etilayotgan qaysi kasblar borligini o'rganing, kim bo'lib ishлаshingizni oldindan aniqlab oling. Rossiyaning barcha mintaqalaridagi bo'sh ish o'rinlarini mazkur saytdan topish mumkin <https://truvsem.ru/>. Har bir mintaqada o'zining xos bo'sh ish o'rirlari bazasi mavjud.

Vositachilar orqali ishga joylashmang, ish beruvchining o'zi sizga noma'lum bo'lsa, ish sharoitlari ham noma'lum bo'ladi. Birinchi uchragan erga ishga joylashishga shoshilmang. Ish beruvchi bilan uchrashing, unga savollar bering. Ish haqi, uning miqdori, to'lash kunlarini so'rashdan uyalmang. Agar shunday imkoniyat bo'lsa, bo'lajak ish joyingiz haqida yaxshiroq tasavvur paydo bo'lishi uchun xodimlar bilan gaplasting.

Ko'pchlik muhojirlarga ishslash uchun haydovchilik guvohnomasi zarur bo'ladi. Agar sizda amaldagi milliy haydovchilik guvohnomasi bo'lsa, siz uni imtihon (nazariy va mashina haydash) topshirib, possiyanikiga almashishingiz mumkin. Agar sizda haydovchilik guvohnomasi bo'lmasa yoki muddati o'tib ketgan bo'lsa,

Rossiyadagi avtomaktabda o'qish, bundan so'ng imtihon topshirish talab etiladi.

RFda rasmiy ishga joylashish uchun ish beruvchi bilan tuzish zarur:

- mehnat shartnomasi – ish beruvchining ish joyida doimiy uzoq muddatli bandlik holatida;
- xizmat ko'rsatish shartnomasi va pudrat shartnomasi – vaqtincha bandlik holatida, cheklangan muddatda aniq chegaralangan ish hajmini bajarish pudratida.

Mehnat muhohoji ishslash uchun patent olganidan so'ng 2 oy davomida rasman ishga joylashishi zarur, shuningdek отдел по вопросам миграции УВМ ГУ МВД Россиига mehnat shartnomasining nusxasini yubotishi zarur.

Rossiyada yollanma mehnat (ish beruvchining o'z xodimlarini boshqa tashkilotlarga mehnat shartnomasiz yo'llashi) taqiqlangan. Faqat rasmiy xususiy bandlik agentliklari o'z xodimlari mehnatini boshqa tashkilotlar va jismoniy shaxslarga taqdim etish huquqiga egadirlar, lekin bunda ular quyidagilarga burchlidirlar:

- cher ellik xodim bilan mehnat shartnomasida uchinchi tomonda ish bajarish imkoniyatini ko'rsatishi;
- uni uchinchi tomonga ishga jo'natayotganda xodim bilan qo'shimcha shartnomaga tuzish.

Qonuniy ishlaydigan barcha xususiy agentliklar Postrudning yagona reestriga kiritilgan - <https://rostrud.gov.ru/opendata/7712345678-chaz> U erda sizning rasmiy ish beruvchingiz bor-yo'qligini albatta tekshirib ko'ring.

Rasmiy ishga joylashish uchun muhojirda bo'lishi zarur:

- notarial jihatdan tasdiqlangan rus tilidagi tarjimasi bilan amaldaui xorijiy passport;
- mehnat daftarchasi(muhojirning mehnat daftarchasi bo'limgan holatda uni ish beruvchi ochadi)
- ИИН (soliq to'lovchining identifikasyon raqami)
- СНИЛС
- amaldagi ishslash uchun patent
- amaldagi ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisi (ДМС).
- orta maxsus yoki oliy kasbiy ma'lumot haqidagi diplom – malakali vazifaga ishga joylashish paytida.

RFda 135 ta malakali kasbdagi mutaxassislarning ro'yxati mavjud. Bunday mutaxassislar Rossiya iqtisodi uchun zarur va ular RFda 1 yildan ko'proq ish stajlari bo'lishsa, osonlashtirilgan tarzda Rossiya fuqaroligini olishni mo'ljallashlari mumkin. Bu ro'yxatga tibbiy (feldsher, tibbiy hamshra, vrach, akusher), pedagogik (tarbiyachi, o'qituvchi, muallim), injenerlar, ishchilar (tokar, slesar, elektrik, mohtajchi, stanokda ishlovchi va hokazo), qishloq xo'jalik xodimlari va boshqa mutaxassislar. Ro'yxat bilan internetda tanishish mumkin - Приказ Министерства труда и социальной защиты Российской Федерации от 25.11.2019 № 734н «Об утверждении перечня профессий (специальностей, должностей) иностранных граждан и лиц без гражданства - квалифицированных специалистов, имеющих право на прием в гражданство Российской Федерации в упрощенном порядке»

MEHNAT HUQUQLARI HIMOYASI



Shartnomasiz ishlashga rozi bo'lmang. Albat-ta shartnomani o'qib chiqing. Unda hamma sharoitlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak: siz nima ish qilasiz, qaerda ishlaysiz, qaysi grafikda, ish haqi miqdori va hokazo. Agar sizni ish haqi borasida aldashsa, ishlaganizingizni shartnomasiz isbotlashingiz qiyin (Jumgalbek).



Mihojirlarning ko'pincha duch keladigan hodisalaridan biri – ularni ish joylarida jarimaga tortishadi. Sizga aytishlari mumkin: ishga kechikding, ish joyida telefonda gaplashding yoki rejani bajarmading. Rossiya-da qonun bo'yicha jarima yozishlari mumkin emas. Buning ustidan shikoyat qilishingiz mumkin (Fotima).



Agar ishingizda ish haqi berishni kechiktirishsa va nimanidir kamaytirib hisoblashsa, bu yomon belgi! Buxgalter kasallanib qoldi, boshliq yo'q, yana ych kun kuting, deyishlari, turli bahonalar topishlari mumkin. Bir kun kelib umumay ish haqingizni bermasliklari mumkin. Bu ishdan tezda keting (Gulnora).



Asqotib qolar, deb har holda ish joyingizda ish kiyimida suratga tushib qoyganingiz foydalidir. Agar sizga ishlagagansan deb ish haqingizni to'lashmasa, u bilan isbotlash mumkin (Nurlan).



Dam olish kunlarisiz ishlashga majbur qiladigan ish beruvchlar ham bor. Men non pishiradigan erda ishlab yurganimda, menga bizda hozircha seni almashtiradigan xodim qo'q, ishla yo ishdan bo'shatamiz, deyishdi. Aslini olganda bu noqonuniydir. Sizda dam olish kunlari bo'lishi kerak. To'g'ri, ko'pchilik muhojirlar ko'proq pul ishlash uchun dam olish kunlarisiz ishlashadi. Va, menimcha, ayrim ish beruvchlar muhojirning dam olish kunlarisiz ishlashiga o'rganib qolishgan (Zilola).



Hozir hammada smartfon va internet bor, lekin har doim ulardan maqsad yo'lida foydalaniahmaydi. Tanishim menga ish taklif etdi, men allaqachon u erga borishga otlangandim, menga rasmiylashtirishni aytishdi. Shunda Yandeksdan ish beruvchining nomini topdim va u haqidagi fikrlarni o'qidim. Odamlar juda yomon fikrlar qoldirishgan ekan. Turli sautlar va forumlarda uning ish haqini bermasligi, odamlar ishlab-ishlab, ishni tashlab ketishlarini yozishgandi. Qisqasi, men u ishga bormadim. Bu usul har doim ham yordam beravermaydi, lekin ba'zan internetda chindan ham fikrlar topish mumkin (Toktaim).



Birida shunday bo'lgandi - ish beruvchi pasportimni tortib oldi va qaytib bermadi. Shundan so'ng mem uning bunday qilishna huquqi yo'qligini bilib oldim. Men unga polisiyaga murojaat qilishimni aytdim. Pasportni qaytarib berishdi (Rahmatullo).



Agar siz rasmiy, mehnat sharnomasi bilan ishlasangiz va o'z mehnat huquqlaringizni bilsangiz, sizni hech kim aldayolmaydi. Aldagan taqdirda ham, siz mudom o'zingizni himoya qila olasiz va ishlab topgan pulingizni qaytarib ola olasiz. Shartnomada yozilganlarni diqqat bilan o'qing. Shartnomaning bittasini albatta o'zingizga oling, u sizda bo'lishi zarur (Latifjon).



Sen hujjatlarga ko'ra bir tashkilotga joylashib, aslida boshqa bittasida ishlasang, ko'pincha aldov yuz beradi. Pul borasida aldashlari mumkin, ish haqini berishmaydi yoki to'liq berishmaydi. Hushyor bo'ling (Mavzuna).



TAHLILCHI SHARHI

Mehnat huquqlaringizni bilish Rossiyada muvaffaqiyatli ishslash, shiningdek huquqlaringiz buzilgan paytda ularni himoya qilish imkonini beradi.

Birinchidan, rasmiy ishlang. Rasmiy – demak, barcha mehnat sharoitlari va ish uchun rag'batlantirish ko'rsatilgan mehnat sharnomasi bilan ishslash, uning bir husxasi qo'lingizda saqlanadi.

Ikkinchidan, bu masalada ish beruvchi bilan kelishmovchiliklar kelib chiqishi nazarda tutilgan holda ishlagan vaqtningizni qayd qilib boring.

Har ehtimolga ko'ra ishga joylashgan eringizdag'i bajaran ishlaringiz borasida isbot-dalillarni to'plab qo'y-

ing. Bular ish grafiklarining fotosuratlari yo nusxalari, guvohnomalar (“propusklar”), xodimning yorlig'i, ish joyingizdagи ish kiyimida tushilgan suratlar bo'lishi mumkin.

O'z huquqlaringizning buzilishiga yo'l qo'y mang. Ish beruvchining kichik huquqbazarliklar, masalan, ish haqini biroz kechiktirib berish, kichik jarimalar solishi kabi hollar tez-tez yuz berib turadi. Agar xodim savodsiz bo'lsa va bunday huquqbazarliklarga indamay ketsa, vaqt kelib, ular muntazam va ancha kattaroq bo'ladi.

Ish beruvchi sizning qanchalik savodli ekanligingiz va mehnat huquqlaridan xabardorligingizni mehnat shartnomasiga munosabatingizdan, ishga joylashishda qanday savollar berishingizdan, huquqlaringiz buzilganda o'zingizni qanday tutishingizdan sezib oladi. Hatto sizning gapirishingizdagи «mehnat kodeksi», «prokuratura», «davlat mehnat nazorati» kabi so'zlarni joyida ishlatish ham o'z huquqlarini himoya qila oladigan savodli odam ekan, degan tasavvur uyg'otishi mumkin.

Mehnat huquqlaringizni himoya qilish borasida www.onlaysinspeksiya.rf portalida bat afsil tanishingiz mumkin. U erda mehnat huquqlari buzilishi borasida electron ariza jo'natish imkoniyati mavjud.

O'z mehnat huquqlaringizni bilish va ularni himoya qilishga tayyorlik – ish beruvchining o'z majbariyatlarini bajarishi uchun asosiy kafolat. Muhojirga mehnat huquqlarini himoya qilish uchun maslahat beramiz:

- albatta mehnat shartnomasi tuzish;
- qilingan ishlar kundaligini yuritish – qachon, nima qilganingizni va qay miqdorda ish haqi olganingizni qayd qilish;

- qo'lingizda ko'chirmalar, hisob varaqalari, guvohnoma (proruska), qayd jurnallari nusxalari, is vaqt tabecli, tovarlar, maxsus kiyimlar qabuliga doir bitiklar va ishga oid boshqa hujjatlar bo'lishi zarur;
- ishga joylashish va ish haqi olishni tasdiqlay oladigan o'rtoqlaringiz va ishdagi rahbarlaringizning familiyalarini, ismlarini, ular bilan qanday aloqaga chiqishni albatta eslab oling;
- murakkab vaziyatlarda va ish beruvchi bilan muzokaralarda so'zlashuvlarning ovozini yozib oling va tasvirga tushiring, ish beruvchining vakillari bilan yozishmalarni saqlab qo'ying, ish joyidan fotosuratlarinigiz bo'lsin.

Rasmiy ishga joylashish holatida RF MKning 360.1 muddasiga muvofiq ish beruvchini ish haqidagi qarzni to'lashga majbur qilishi mumkin. Buning uchun mehnat munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlar bilan o'z mintaqangizdagi Государственную инспекцию труда (ГИТ) ga ish haqi to'lanmaganligi borasida ariza yozish zarur.

Ish haqi kechiktirilgan holatda Sizga tavsiya etamiz:

- agar ish haqi 15 kundan ko'p muddatga kechiktirilgan holatda –Siz TK РФ ning 142 m. 2 q. ga muvofiq ish beruvchiga ish haqi berilmagani munosabati bilan ishni to'xtatish haqida yozma ariza berish huquqiga egasiz.
- ish beruvchiga TK РFning 62 m.si asosida ishga taalluqli hujjatlar nusxasini berish borasida yozma murojaat qilish – shu jumladan, hisob varaqalarining.
- agar Siz 3 ish kuni dayomida hujjatlar nusxasini olmasangiz – ish beruvchi ustidan Государственную инспекцию труда ga ariza yozing.

- • koyat bilan murojaat qiling. Shikoyat jamoaviy bo'lishi mumkin. Shikoyat ko'rib chiqilayotgan paytda ish beruvchining Sizni ishdan bo'shatishga huquqi yo'q.

Ariza berilayotgan paytda qo'lingizda ariza olingan sana borasida ish beruvchining imzosi yo muhri qo'yilgan ariza nusxasi qolishi muhimdir.

Agar ish beruvchi shikoyatga javob bermasa – prokuratora yo sudga shikoyat bilan murojaat etish zarur.

Jamoaviy murojaatlar va arizalar bir kishining murojaatiga qaraganda ko'proq samarali bo'ladi. Muhojirlar mehnat huquqlarining ommaviy buzilishlari haqida ish beruvchining turgan eridagi davlat va mahalliy hukumatlar maqomotlarini ogohlantirish zarur.

Ish beruvchi, shiningdek, mehnat himoyasi sohasidagi qonunchilikni bajarishi zarur – agar Sizning ishingizdagi mehnat sharoitlari hayot va salomatlik uchun xatarli bo'lsa, ishni tezda to'xtatish va zudlik bilan Следственный комитетга shikoyat qilish zarur.

Foydali muloqotlar yo'llari

<https://www.rostrud.ru/inspections/> - Государственных инспекций труда ning Rossiya mintaqalaridagi aloqa yo'llari.

www.onlaininspeksiya.ru – Mehnat va bandlik federal xizmatining electron xizmati (mehnat huquqlari buzilishiga oid ariza yuborish imkoniyati bilan);

www.guvm.mvd.ru – Главного управления по вопросам миграции МВД России ning rasmiy sayti;

<http://genproc.gov.ru/contacts/ipriem/> - Прокуратуры РФ ning internet-qabulxonasi;

<http://sledcom.ru/#reception> – Следственного Комитета РФ ning rasmiy sayti,internet- murojaatlar yuborish imkoniyati bilan;

<https://sudrf.ru/> - davlat avtomatlashtirilgan tizimining intertet-portali «Правосудие» - RF mintaqalaridagi sudsular bilan aloqa vositalari.

Muhojirlarga mehnat huquqlarini himoya qilishda yordam beradigan davlat va nodavlat tashkilotlar bilan aloqa qilish yo'llarini www.migrussia.ru saytidagi muvofiq mintaqalar bo'yicha bo'limdan topish mumkin.

Android uchun «Мигразия+» mobil ilovasining «Hujjatlar» bo'limida Siz hujjatlar nusxasini berishga oid ariza shakli, ish beruvchidan shikoyat, Государственную инспекцию труда ga ariza nuxalarini topishingiz va to'ldirishingiz mumkin.

POLISIYA BILAN HAMKORLIK



Bizni ushlashdi, pul olishdi, deya shikoyat qiladigan odamlar bor. Men bu odamlarning aksaruyatining hujjatlari norasmiy deb o'layman. Men uzoq yillardan buyon Peterburgda yashayman, meni polisiyachilar to'xtatadigan vaqtlar ham bo'ladi, hujjatlarni tekshirishadi va qo'yib yuborishadi. Hech qanday muammo bo'lmaydi! (Salohiddin)



Agar vijdonsiz polisiyachiga duch kelsangiz, uning ko'kragidagi jeton raqamini albatta yozib oling

uo esda tuting. Keyinchalik uning ustidan shikoyat qila olish uchun. Agar qonun buzilgan bo'lsa, albatta polisiyachidan protocol nusxasini so'rash zarur (Farhod).



Polisiya bilan miammo bo'lmasligi uchun hamma hujjatlar joyida bo'lishi va ularni o'zingiz bilan olib yurishingiz kerak. Polisiyachining sizning pasportingizni tortib olish huquqi yoq (Shahnoza).



Bir narsani aytmoqchiman, polisiyachining seni tez-tez to'xtataverishi tashqi qiyofangga bog'liq. Agar sen yaxshiroq kiyunsang, soqolingni qirib yursang, unda tegishmaydi. Eski jinsi, sport shimi diqqatni tortadi. Qora sumkalar, ryukzaklar, qora kiyim haqida ham xuddi shunday deyish mumkin. Go'yo ko'zga tashlanmaydigandek kiyinasan, lekin aslida Peterburgdek katta shaharda aynan bu e'tiborni tortadi, chunki bu erda yaxshi va tartibli kiyinish qabul qilingan (Sherzod).



Ko'zida qo'rquv bo'lgani holda ketayotgan odam mudom nazarga tushadi, uning hujjatlari joyida emas, deya shubhalanib, to'xtatmoqchi bo'lishadi. Garchi hujjatlari joyida bo'lsa ham, ko'pchilik muhojirlar o'z-o'zidan polisiyadan qo'rqishadi. Va bu jiddiy muammodir. Seni to'xtatishsa, titroq bosadi va aftingdan qo'rqayotganiningni ko'rib, aslida yo'q qandaydir

talablar haqida gapira boshlashadi. Polisiya xodimi bilan o'zingizni xotirjam va ishonchli tutishni o'rganining (Tohirjon).



TAHLILCHI SHARHI

Polisiyaning bosh vazifasi – tartib saqlash va aholi xavfsizligini ta'minlash. Polisiya xodimi bilan muloqot qo'rquv uyg'omasligi kerak. Lekin polisiya bilan muloqotda o'z huquqingizni bilishingiz zarur.

Chet ellik fuqaro o'zi bilan mazkur hujjatlarni olib yurishi zarur:

- pasport;
- muhojirlik kartasi;
- muhojirlik qaydiga (registrasiya) qo'yilganligi borasida bildiruv;
- ishslash uchun patent, to'lov haqidagi cheki bilan;
- ixtiyoriy tibbiy sug'urta (ДМС) yo majburiy tibbiy sug'urta (OMC)ning amaldagi tibbiy polisi.

Polisiyachi Sizga murojaat qilganda o'zining unvoni, vazifasi, familiyasini aytishi, guvohnomasini korsatishi va hujjatlarni tekshirish sababi va maqsadini tushuntirishi zarur.

Faqat xizmat vazifalarini bajarayotgan xodimlarga hujjatlarni tekshirishlari mumkin. Bunday xodimlarning ko'krak jetoni bo'ladi, unga e'tibor bering, muammolar kelib chiqisj ehtimoliga ko'ra uni eslab oling va yozib qo'ying.

Polisiya xodimiga pota bermang. Pora berish jinoyat sanaladi! Sizdan tovlamachilik qilib pul olish haqida 112 telefoniga qo'ng'iroq qilish zarur.

Muhojirlik sohasidagi ma'muriy huquqbuzarlikka doir protocol faqat Muhojirlik masalalari bo'yicha boshqarma xodimlari tomonidan tuzilishi mumkin. Protocol tuzilishi Sizning jarima to'lashingiz zarurligini anglatmaydi – Sizning ishingiz o'zingizning ishtirokingizda sudda, районном отделении УВМ МВД да ко'rishi zarur. Ko'rib chiqish yakuni bo'yicha Sizga uning qarorini berishlari zarur, Siz uni bajarishingiz yo 10 kun davomida sudga shikoyat qilishingiz mumkin.

Polisiya xodimlarining jarima yo boshqa bir to'lov uchun Sizning hujjalaringizni tortib olishga huquqlari yo'q – bu noqonuniydir (19.17. КоАП РФ ning 19.17 м.). ma'muriy huquqbuzarlikka doir ish bo'yicha qaror bo'lmasa, jarima to'lashni talab qilish ham noqonuniydir.

Ushlanish holida sizning huquqlaringiz buzilgan holatda Общественную наблюдательную комиссию (ОНК) ka murojaat etishingiz mumkin. OHK a'zolari chet ellik fuqarolarning yashash sharotlarini tekshirish huquqiga egadirlar, shuningdek sizga bepul huquqiy yordam korsatishlari mumkin.

Agar siz polisiya xodimlarining o'z xizmat vakolatlari dan chiqish hollariga duch kelsangiz, arizani qabul etishni rad etishsa, polisiya xodimlari chora ko'rishmasa, pora talab qilishsa va boshqa korruption holatlarda siz polisiya xodimlarining noqonuniy harakatlari ustidan shikoyat qilish huquqiga egasiz.

Foydali muloqotlar yo'llari:

Polisiya bilan muloqot yo'llari – 02, 102 yoki 112.

Sayt – www.mvd. rf

<https://mvd.ru/contacts/sites> – Rossiya mintaqalarida polisiya bo'linmalarining "qaynoq tarmoq" aloqalari.

https://mvd.rf/request_main – polisiyaga electron mur-ojaat.

«Горячая линия» МВД РФ: 8 (800) 222-74-47

«Телефон доверия» ГУ МВД России

- по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области:
8 (812) 573-21-81

- по г. Москве: 8 (495) 694-92-29, по Московской обл.: 8 (495) 692-70-66

Дежурная часть ГУ МВД России

- по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области:
8 (812) 573-20-49

- по г. Москве: 8 (495) 694-83-90, по Московской обл.: 8 (495) 609-49-52

Главное управление собственной безопасности
МВД России: 8 (495) 667-07-30

ОРЧ УСБ ГУ МВД России по Санкт-Петербургу и
Ленинградской области: 8 (812) 541-02-02

Прокуратуры:

- г. Санкт-Петербурга: 8 (812) 315-48-53;
Ленинградской обл.: 8 (812) 429-77-55.

- г. Москвы: 8 (495) 683-68-74; Московской обл.:
8 (495) 628-27-88,

Главное Следственное Управление Следственного
комитета РФ

- по г. Санкт-Петербургу: 8 (812) 571-00-40,
8 (812) 570-66-71, по Ленинградской

- по г. Москве: 8 (495) 690-25-28, по Московской обл.: 8 (499) 184-00-65, обл.: 8 (800) 200-97-80.

Уполномоченный по правам человека

- в г. Санкт-Петербурге: 8 (812) 374-99-39, в Ленинградской обл.: 8 (812) 296-60-13.

- в г. Москве: 8 (495) 957-05-85, в Московской обл.: 8 (495) 650-20-38,

Berul huquqiy yordam

- в Санкт-Петербурге и Ленинградской обл.: БФ «ПСП-фонд» 8 (812) 337-57-85, 8 (953) 141-31-09, www.psp-f.org

- в Москве и Московской обл.: Комитет «Гражданское содействие» 8 (495) 681-05-27, 8 (968) 918-98-65, www.refugee.ru

<http://migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru/zakonodatelstvo/> - Sankt-Peterburgda qonunchilik, va-kolatdorlik, hujjatlarni tekshirish va polisiya harakatlari ustidan shikoyat

Общественная наблюдательная комиссия (ОНК):

- Санкт-Петербург 8 (931) 352-06-35, onkspb.ru

- Ленинградская обл. 8 (911) 955-08-52, leningradskajaoblast.onk.su

- Москва 8 (495) 229-42-80, onk-moscow.ru

- Московская обл. 8 (495) 229-42-80, onk-mosobl.ru

TURAR-JOY



Xona yo uyni ijara qilish bo'lsangiz, xo'jayinga darhol registrasiya qilishingiz zarurligini aytинг.
Chunki keyinchalik rad qiladigan odamlar bor (Umid).



Rossiyada yashashning eng arzon usuli – bu, xostel. *Ayrim ish beruvchilarning yotoqxonalari bo'la-di* (Islom).



Agar e'lon bo'yicha uy qidirayotgan bo'lsangiz, ehtiyyot bo'ling. Tovlamachilar ko'p. Va hech qachon uyni ko'rish uchun pul bermang! (Gulnora)



O'zini xo'jayin deb tanishtirib, ijara ga uy berayotgan odamning pasporti va kvartira uchun hujjalari borligini albatta tekshirib ko'rish zarur. Tez-tez uchrab turadigan qalloblik – sizga ijara ga uy berishadi, pul olishadi, so'ngra uch kundan keyin haqiqiy xo'jayin keladi va sizni haydab yuboradi. Ular, albatta, qalloblar bilan til biriktirib olishgan, lekin siz buni isbotlay olmaysiz. Shuning uchun siz bilan uyning haqiqiy xo'jayini gaplashayotganiga albatta ishonch hosil qiling (Ruxshona).



Pul to'lashga va uyga ko'chib otishga shoshilmang. Avvaliga barcha masalalarni muhokama qilib oling, hamma sharoitlar borasida kelishib oling, qo'shnilaringiz kimligi bilan qiziqing. Kvartira holatini tekshiring, chiroq bormi, isitiladimi, hojatxona, vanna joyidami, hech narsa tommaydimi? Agar nimadir singan bo'lsa, nimadir ishlamasa, bularga e'tibor bering, keyinchalik ularni siz sindirganga, buzganga chiqarishmasin (Syuzanna).



Agar siz turar-joy olayotganingizda, shartnoma tuzmasangiz, qattiq tavakkal qilasiz, ijara ga beruvchi bir kuni sharoitlarni o'zgartiradi, nimaga kelishganliklaringni unutadi va birdan shartnomada kelishilmagan nimadir uchun to'lash kerakligini aytadi (Yuliya).



Agar siz juda ko'p muhojirlar yashayotgan kvartiraga yashash uchun borsangiz, ehtiyyot bo'ling. Bunday kvartiralar polisiya tomonidan oson teksgirilishi mungkin. Qo'shnilar shikoyat qilishadi, polisiyaga telefon qilishadi va tez orada tekshirish boshlanishini kutavering. Bu yaxshilik bilan tugamaydi (Davron).



Ba'zan shunday bo'ladi, odamlar tanish yurtdoshlari ijara ga olgan uyga yashash uchun borishadi. Uy egasi esa, bu borada bilmasligi mumkin. Siz tanishlaringizga pul berasiz va u erda yashay boshlaysiz, va keyin xo'jayin keladi hamda sizni haydab yuboradi, chunki u boshqa yashovchilarga qarshi va unga baribir – tanishlaringizga pul bergen bo'lsangiz ham (Temirbek).



TAHLILCHI SHARHI

Turar-joy izlaganda ehtiyyot bo'ling. Shubhali firmalarga murojaat etmang, kvartirani ko'rish uchun pul to'lamang, shartnoma tuzilmaguncha pul bermang.

Turar-joyni ijaraga olayotganda doim ijara shartnomasini rasmiylashtiring. Og'zaki bitimga ko'ra turar-joy ijarasi kutilmagan ko'ngilsizliklarga, shart-sharoitlarning o'zgartirilishiga va hatto to'satdan ko'chada qolishgacha olib borishi mumkin.

Sizni qabul qilayotgan tomonni kelgan eringizda sizga registrasiya zarurligi borasida ogohlantiring – bunday holda siz o'zingizni muhojirlik qoidalari buzilishidan saqlaysiz.

Hali Rossiyaga kelmasiningizdan oldin turar-joy izlash va yashash uchun kelishib olishni maslahat beramiz: Sizning yashash joyingiz muhojirlik qaydiga qo'yilgan er bilan tog'ri kelishi zarur, xona yo uy egasi esa, Siz uchun qabul qiluvchi tomon bo'lishi zarur.

Ishonchli ko'chmas mulk agentliklari o'z idora (ofis) lariga ega bo'lishadi, o'z nomlarini yozib qo'yib, oshkorra ishlashadi. Ular xo'jayin bilan ijara haqida shartnoma inzolangandan co'ng haq olishadi.

Ehtiyyot bo'ling – turar-joy bozorida tovlamachilarga duch kelish mumkin! «Axborot xizmatlari» ko'rsatadigan va juda arzon variantlarni taklif etadigan firmalar xizmatidan foydalanmang.

Turar-joy uchun pulni vaqtida to'lash zarur. Sharnomada Siz oyning qaysi kunigacha ijara haqini to'lashingiz zarurligini yozib qo'yishlari kerak.

Imzo chekilmagan taqdirda hech qachon pul bermang – Sizni aldamasliklari uchun pulga bog'liq har bir amalyot qog'ozda aks etishi zarur.

Ijarani to'xtatish shartlariga albatta e'tibot qarating – xo'jayin asossiz va ogohlantirmsadan turib Sizni ko'chaga chiqarib yubotish huquqiga ega emas. Tovlamachilardan

ehtiyot bo'ling – ijara haqidagi shartnomani imzolamasdan va qo'lingizga olmasiningizdan avval hech kimga pul bermang.

Ishchilarni shahardagi yotoqxonalar va xostellarga joylashtirishni taklif etadigan ko'plab shirkatlar mavjud. Internetdan bunday shirkatlarni topish oson.

Sizning ijara uyingizni o'rtoqlaringizga berishga huquqingiz yo'q – faqat turar-joy egasigininggina bunday huquqi bor. Ijaraga olingen turar-joyda yashyotgan barcha kishilar nomi ijaraga oid sharnomada yozilishi zarur.

Ijaraga olingen turar-joyda Siz tartibga rioya qilib, jimlik saqlashingiz zarur. Ish kunlarida soat 22 dan 7 gacha, dam olish va bayram kunlari 22 dan 12 gacha jimlikni buzish taqiqlanadi.

Foydali muloqotlar yo'llari

- Turar-joyni mustaqil ravishda ijaraga olish uchun Rossiyadagi mashhurroq internet-resurslar: <https://realty.yandex.ru> (Яндекс.Недвижимость) <https://www.cian.ru/> (ЦИАН) <https://www.avito.ru> (Авито) <https://www.bn.ru> (Бюллетень недвижимости)
- Turar-joyni ijaraga olish shartnomasi namunasini mazkur manzildan olish mumkin: <http://migrussia.ru/poleznye-materialy/v-pomoshch-migrantu>

MURAKKAB VAZIYATLAR



Ba'zan yomon hodisalar yuz beradi, hujjatlarning amal qilish vaqtি o'tib ketadi va siz kelishga taqiq qo'yilganini bilasiz, qarindoshingizni SVSIGga olib ketishadi va shunga o'xshash. Bunday holatlarda odamlar qattiq haya-

jonga tusha boshlashadi va noto 'g 'ri qarorlar chiqarishadi. Ana shunday paytlarda darhol har xil "yordamchilar" to-piladi, ular har qandaq muammo bo 'lsa, hal qilib berishlarini aytishadi, asosiysi, pul olib kel, deyishadi Bunda tinch-lanib olishga urinish zarur. Shundan so 'ng muhojirlarga yordam beradigan notijotat ijtimoiy va huquqiy tashkilo-tlarni izlash zarur, va qanday vaziyatga tushib qolningani aytilib, nima qilish kerakligi so 'raladi. Juda yoqinsiz javob olinadigan, foydali qarorlar topib bo 'lmaydigan vaziyatlar ham bo 'lishi mumkin, har qanday murakkab vaziyatdan chiqarib beraman, deydigan tovlamachilar so 'ziga ishonib, aldangandan ko 'ra, qanday holga tushib qolganingiz borasidagi haqiqatni bilganingiz yaxshi (Avlod).



Agar muammolar chiqib qolsa, biz o 'rganib qol-ganimizdek, o 'z yurtimizda hal qilganimizdek, echishga kirishamiz. Ya 'ni yordam so 'rab o 'z odamlarimiz oldiga yuguramiz, muammoni pul yo aloqalar yo 'li bi-lan hal qilmoqchi bo 'lamiz. Rossiyada bu ishingiz sizga yordam bermaydi, qaytaga vaziyatni yomonlashtiradi va hammasi siz uchun qayg 'uli tugaydi. Unutmang, boshqa mamlakatda ko 'p narsa boshqasha bo 'lishi mumkin. Va sizning yurtdoshlariningiz sizni aldashlari va sizning hisobingizdan pul ishlashlari mumkin. Afsus-ki, shundaylar ham uchraydi (Baxtiyor).



Agar siz bank kartasini yo 'qotib qo 'ysangiz yo o 'g 'irlatsangiz, uni darhol yoptirib qo 'yish – "blok" lash zarur. Buni bankning telefoni orqali qilish mumkin

– uni qaerdadir saqlab qo'yish yo internetdan ko'rish mumkin. Yo bank bo'linmasiga borish va u erda bloklashtirish mumkin. Yangi kartani olish uchun pul to'lash zarur. Yana har xil telefoniy qalloblar bor, ular qo'ng'iroq qilib o'zlarini bank xodimi deb tanishtirishadi va karnaning ma'lumotlarini so'rashadi. Hech qachon va hech kimga kartangizning pin-kodini aytmang (Syuzanna).



Hamma pulingizni uyingizga yubormang, kutilmagan vaziyatlar uchun ham olib qoying. Bizda birida shunday bo'ldi, karantin paytida ishimizni yo'qotdik, pulimiz yo'q edi, keyin bemor bo'lib qoldik. Qiyin edi. Zaxirada uncha-muncha pul bo'lishi kerak (Asan).



TAHLILCHI SHARHI

Turli xil qiyin va keskin hayotiy vaziyatlar uz bergan paytda, avvalo, tinchlanishga harakat qiling. Tushkunlikka tushish va hayajonlanish ularni tez va to'g'ri hal etishga imkon bermaydi. Bundan tashqari, bunday vazuyatda siz osongina tovlamachlar changaliga tushib qolishingiz mumkin. O'zingiz ishongan yaqin odamlaringizdan maslahat so'rang.

Telefonga muhim raqamlarhi yozib qoying: tez yordam, polisiya, o't o'chirish brigadasi, gaz xizmatini chaqirish. Sizga xizmat ko'rsatadigan bank raqamini yozib qo'ying.

Siz bilan qanday murakkab vaziyatlar yuz berishi mumkinligini oldindan tasavvur qilish va unday holatda nima qilaman va kimga murojaat qilaman, deb o'ylab qo'yish foydali bo'lishi mumkin. Masalan, siz haydovchisiz, bunda YO'NH (DTP) xavf solganda, sizning yoki yaqin kishilaringizning surunkali kasalligi bor bo'lsa, u xuruj qilganda, agar sizning tanishlaringiz no-qununiy ishlayotganlarida, bu ularga qanday xavf solishi ma'lum bo'lganda va boshqa vaziyatlarda nima qilishni bilmoq muhimdir.

Agar tanishlaringiz og'ir holatga tushib qolishsa, be-farq bo'lman. Hatto sizda jismoniy jihatdan yordam berish imkonи bo'lmasa-da, siz ularga yaxshi so'zlar-ningiz bilan tasalli berishingiz, shuningdek, yuz bergen vaziyatdan yaxshiroq chiqishga maslahat berishingiz, ularni xato qilishdan to'xtatib qolishingiz mumkin. Unutmang, boshiga tashvish tushgan odam kuchli hayajon bois to'g'ri qarorga kela olmaydi, chunki u zaiflashib qoladi.

Foydali muloqotlar yo'llari:

<http://migrussia.ru/> - «Регионы» bo'limida Siz o'zingiz yashayotgan mintaqani topishingiz va «Помощь» bo'limini tanlab, murakkab vaziyatda qaerga murojaat qilishni bilib olishingiz mumkin.

Yordam berishi mumkin bo'lgan tashkilotlar bilan aloqa qilish yo'llarini mintaqaviy resurslardan ham topish mumkin:

migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru – «Добро пожаловать в Санкт-Петербург!»: Sankt-Peterburg Hukumatining muhojirlar uchun internet-resursi

Migrantlenobl – «Добро пожаловать в Ленинградскую область!»: Leningrad viloyatidagi mehnat muhοjirlari uchun rus, o'zbek va tojik tillaridagi mobil ilova.

SALOMATLIK VA TIBBIYOT



Hayot uchun xavf tug'ilganda, bepul tibbiy xizmat ko'rsatilishini ko'pchilik muhοjirlar bilishmaydi. Ular hatto o'lim holatida bo'lganlarida ham, "tez yordam" birdan hujjatlarni tekshirib qoladi va ularning joyida emasligi borasida polisiyaga xabar beradi, deb cho'chishadi. Bunday emas, vrachlar muhοjirlilik xizmati va polisiya bilan bog'liq emaslar, ularning ishlari boshqa (Gulnora).



Agar siz uosh, sog'lom va biron eringiz og'rib qolishi xafvi bo'lmaganda, sug'urta "shunchaki" bo'ladi ham. Va agar bunday bo'lmasa, bu holda sug'urta sotib olayotganingizda, unda sizga zarur bo'lgan qo'shimcha tibbiy xizmatlar borligidan oling (Artur).



Bu hech kim hech qachon gapirishni istamaydigan yopiq mavzudir. Va odamlar unga mubtalo bo'lganliklarini yashirishadi. Uylariga qaytib kelishadi, uni og'ir sharmandalik deya yashirishdi. Yaxshisi, bilib going: agar odam VICH ga chalingan bo'lsa, unga Rossiya eshiklari bir umrga yopiladi – patent ham, RVP ham, hech narsa ola olmaydi. Mening bir tanishim unga

chalindi, u baribir noqonuniy ishlayverdi va unga xavf soldi. U SPIDga qarshi kurash fondiga murojaat etdi, u erda uncha-muncha yordam berishdi, lekin hozir u butunlay u dardga mubtalo bo'ldi. Bunda nima deyish mumkin? U qaerdan, qahday paydo bo'lishini tushunish uchun bu kasallik haqida o'qing (Temir).



Agar sizga zudlikda jarrohlik amaliyoti zarur bo'lsa, masalan, avtomobil falokatida qattiq jarohatlansangiz yo ko'richakni kesish zarur bo'lsa, unda bunday amaliyot bepul qilinadi (Marhabo).



Hatto shaharlarda ham turli noan'anaviy tibbiyot, xalq usullari mavjid. Va ayrim odamlar bunga ishonishjadi va tabiblarga ham. To'g'ri har kim o'zi istaganini qiladi va o'zi istaganiga ishonadi. Shunchaki ogohlan-tirib qo'ymoqchiman, agar kasallik og'ir va xavfli bo'lsa, uni unday davolash zarar etkazadi. Vaqt yo'qotish va bemorning holatini og'irlashtirib yuborish mumkin va unda uni qutqarib bo'lmaydi. Vaqt, pul va salomatlikni yo'qotasiz. O'zingizning sog'ligingizni asrang va salomatlik uchun pulni tejamang . Agar uni yo'qotsangiz, unda ishlab, pul topa olmaysiz, begona mamlakatda esa, siz hech kimga kerak emassiz (Mirkul).



Rossiyada yashirin ish ko'radigan mullalarni to-pish mumkin, ular tanangizdan jinlarni haydab chiqarishlarini va turli kasalliklardan davolashlarini aytishiadi. Ular haqida gazetalarda ko'p yozishgan. Ular

tovlamacilardir va odamlarni aldashadi. Tojikistonda ularga qarshi kurash olib boriladi, hozir jodugarlikka qarshi jazo bor. Va ulardan ayrimlari Rossiyaga kelishgan. Ularning oldiga bormang, siz pulingizni yo'qotasiz, va ular sizga yordam berishmaydi (Mohina).



TAHLILCHI SHARHI

Rossiyada zud tibbiy yordam bepul ko'rsatiladi. Tez yordamni chaqirish uchun 112 va 103 ga qo'ng'iroq qilish zarur.

Rejali tibbiy yordam ko'satish shartlari sizning qaysi mamlakatdan kelganingizga va Rossiyadagi maqominigizga bog'liq. Agar Siz EOII (Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Belorus) huqarosi bo'lsangiz va mehnat shartnomasiga ko'ra ishlasangiz, siz OMC polisi bo'yicha bepul tibbiy yordam olish huquqiga egasiz. Agar Sizda РВП yoki БНЖ bo'lsa, shuningdek siz vatan-doshlarni ko'chirish dasturi qatnashchisi bo'lsangiz, ayni shunday shartlar amal qiladi.

Qolgan davlatlar huqarolari uchun rejali tibbiy yordam ko'rsatish pullik asosida amalga oshiriladi. Xizmatlarning ma'lum qismi DMC polisi bilan qoplanishi mumkin. Siz polis olgan sug'urta shirkatida, siz polis harakatiga qo'llanadigan xizmatlar doirasini aniqlashtirishingiz mumkin. Siz polis qoplaydigan tibbiy xizmatlar sonini har doim ko'paytirishingiz mumkin. Buning uchun siz sug'urta agentiga mazkur sug'urta dasturiga tegishli bo'lgan aynan qanday xizmatlar zarurligini tush-untilishingiz kerak.

Biz tibbiy malakasi bo'lmanan, tibbiy xizmatlar ko'r-satishga lisenziyasi yo'q mutaxassislar, shuningdek yashirin faoliyat yuritadigan mutaxassislar xizmatidan foydalanmaslikni qat'ian tavsiya etamiz. Bunday mu-taxassislarga murojaat etish sizni mablag'ingizdan ajralishga va sog'ligingizga zarar etkazishga olib boradi.

Rossiyada patent, PBП, ВНЖ и ва fuqarolik olish uchun to'siq bo'ladigan kasalliklar ro'yxati tasdiqlanganini bilmog muhimdir. Bunday kasallikkarga VICH, sil, sifilis, giyohvandlik, shuningdek COVID-19 kiradi. Ular anilangan holda sizning hujjatlaringizni rasmiylashtirish rad etiladi. Bu kasalliklar jiddiy davolashni talab etadi, aks holda, bemor holatining og'irlashishiga va o'limga olib boradi, shuning uchun Rossiyaga noqonuniy tarzda borish uchun qalbaki hujjatlar tayyorlash yo'li bilan bu muammoni hal etishga urinmang.

Foydali muloqotlar yo'llari

Tibbiy yordam olishda muammo paydo bo'lganda, murojaat etish mumkin:

- Министерства здравоохранения ning "qaynoq tar-mog'i"ga: 8 (800) 200-03-89

http://migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru/budte-zdorovy/-chet_ellik_fuqarolarning_tibbiy_yordam_olishlariga_oid_mufassal_ma'lumot_va_Sankt-Peterburgdagi_tibbiy_muassasalar_bilan_aloqa_yo'llari

<http://migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru/koronavirus/> - koronavirus sharoitida Sankt-Peterburgdagi muhojirlar uchun "qaynoq tarmoq" sahifasi

8(812)576-28-67 –Комитета по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в

Санкт-Петербургге ning mehnat muhojirlari uchun “qaynoq tarmog’”i

«Благотворительная Больница» volontyorlik (ixtiyoriy yordamchilik) loyihasi (Sankt-Peterburgdagi muhojirlar va ularning oila a’zolari uchun bepul tibbiy xizmat ko’rsatish) <https://vk.com/charityhospital>

BOLANING ROSSIYADA TUG’ILISHI



Ayrim muhojirlar Rossiyada bola tug’ishadi. Bu mavzuda juda ko’p yolg’on xabarlar va mish-mishlar aylanib yoradi. Nima pullik, nima bepul? Tug’ishning o’zi – bepul, chunki u zudlik bilan tibbiy yordam ko’rsatish hisoblanadi. Siz tug’ruq munosabati bilan tez yordam chaqirasiz va u sizni tug’ruqxonaga olib ketadi, u erda chaqaloqning dunyoga keltirishni qabul qilib olish bepul. Keyingi tibbiy yordam, ona va bolaga qarash esa, allaqachon pullik bo’ladi. Agat Siz homiladorlik paytida kuzatuvda bo’lishni istasangiz, bu ham pullik. Bunda tibbiy polis haqida oldindan o’ylash, bularning hammasi unda yozilishiga erishmoq zarur. (Kamilla).



Mening Possiyada tug’ishimga to’g’ri keldi, tajribam bilan o’rtoqlashaman. Biz erim ikkovimiz O’zbekistonidanmiz, patent asosida ishlaymiz. Boshqa muhojurlar uchun sharoitlar boshqacha – agar sizda RVP bo’lsa yo siz EOII dan bo’lsangiz, unda sizga oson bo’ladi.

Agar siz homiladorlik paytifa vrach nazoratida bo’lishni istasangiz, maxsus DMS polisi sotib olish zarur bo’ladi.

Homiladorlar uchun turli muddatlar belgilangan polislар bor. Aytib qo'yayin, bu polislar qimmat turadi. Lekin aks holda, har gal vrach qabulida bo'lish va har bir tahlil uchun pul to'lanadi, bu ham arzon emas.

Rossiyada bola tug'ish bepul. Lekin tug'ishdan keyingi xizmatlar allaqachon pullik. Sizga qimmatlik qiladigan va zarur bo'lmasa, oldindan rad etish uchun, nimaga va qancha to'lash kerakligini darhol bilib oling.

Tug'ruqxonada sizga bola tug'ilganligi borasida ma'lumotnoma berishadi. Lekin bu etarli emas. Siz hali tug'ilganlik borasida guvohnoma olishingiz zarur. Buning uchun siz registrasiyadan o'tgan rayondagi ZAGS ga borish zarur. Keyin albatta bolani registrasiya qilish zarur.

Ayrim muhojirlar bunday vaziyatda tushunmay qolishadi, agar bola Rossiyada tug'ilgan bo'lsa, u RF fuqaroligini olishi mumkin deb o'ylashadi. Bunday emas. Bolaning Rossiyada tug'ilishi unga Rossiya fuqaroligini bermaydi. Fuqarolik ota-onasiniki kabi bo'ladi. Lekin agar ota-onasidan biri Rossiya fuqarosi bo'lsa, faqat unda bola Rossiya fuqaroligini olishi mumkin (Hilola)



**TAHLILCHI
SHARHI**

Rossiyada chet ellik fuqarolarning farzand ko'rishi – juda jiddiy va mas'uliyatlidir qadam, bunga har tomonlama tayyorlik bilan borish kerak.

Rossiyada bola tug'ilishi holatida sizga qo'shimcha mablag', shuningdek qo'shimcha hujjatlarni rasmiylashtirish zarur bo'ladi. Shuningdek bola onasining vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo'lishi bilan bog'liq qiyinchiliklarga ham tayyor turing – afsuski, homilador va yosh bolali ayollar amalda ishga qabul qilishda ko'pincha kamsitish-larga duch kelishadi.

Agar siz homiladorlik paytida ayollar maslahatxonasida vrach-ginekolog nazorati ostida bo'lishni rejalashtirsangiz, sizga tibbiy sug'urtaning maxsus dasturini so'tib olish zarur bo'ladi, chunki odatdagি ДМС polisi bu tibbiy xizmatlar xarajatini qoplay olmaydi. Lekin EOII fuqarosi bo'lgan mehnatchilar, shuningdek PBП ga ega bo'lganlar bu xizmatlardan OMC polisiga ko'ra bepul foydalanishlari mumkin.

Homiladorlikni nazorat etish ona va tug'ilajak bola sog'ligi holatini tekshirib borish, salomatlik borasida muammo tug'ilganda vaqtida chora korish va tug'ruqni muvaffaqiyatli ta'minlash imkonini beradi. Agar sizda OMC polisi bo'lmasa va pullik dasturni to'lash imkoniyati yo'q bolsa, baribir bunga qaramay, og'riq kuchayganda, qon ketganda, o'zini yomon his qila boshlaganda, vrachga murojaat etishni tavsiya etamiz. Homiladorlikning noto'g'ri rivojlanishi faqat bolaning emas, balki onaning o'limiga olib boradigan hollar ham yo'q emas.

Rossiyuda bola tug'ilishiga ko'rsatiladigan xizmat bebul. Tug'ruqxonaga olib ketishlari uchun to'lg'oq boshlanganda tez yordam chaqirish zarur. Rossiyada tug'ruqxonaga qabul qilishlari uchun tahlillar va ko'riklar qog'ozlari borligi talab etiladi. Zarur tahlillar va hujjatlar bo'limgan holatda ham, bunga qaramay, tug'yotgan

ayolni qabul qilishadi va lekin maxsus ihota bo'limiga yotqizishadi.

OMS polici yo ДМС ning maxsus dasturi bo'limgan holatda tug'ishdan tashqari barcha tibbiy xizmatlar pullik ko'rsatiladi. Keyinchalik kutilmagan ko'ngilsiz ho-disa bo'lmasligi uchun nimaga va qancha haq to'lashni aniqlab oling.

Tug'ruqxonadan chiqayotganda, siz bola tug'ilganligi borasida ma'lumotnoma olasiz. Keyin siz bu ma'lumotnoma va hujjatlaringiz bilan tug'ilganlik haqida guvohnoma olishingiz zarur. Buni siz registrasiyadan o'tgan rayondagi ЗАГС dan olish mumkin. tug'ilganlik haqida guvohnoma olingach, sizdan bolani muhojirlik qaydiga qo'yish (registrasiya qilish) talab etiladi.

BOLALAR TA'LIMI



Katta shaharlarda bolalarni bog'chaga goylashtirish juda qiyin, hamma erda joy etmaydi. Agar yosh bolalaringiz bo'lsa, bunga tayyor turing. Yaxshisi, hali Rossiyaga kelmasiningizdan oldin agar bolalar bog'chasida joy bo'lmasa nima qilishingizni o'ylab qo'ying. Odatda biz bu erda ko'p ishlaymiz, va bola mudom bir o'zi qoladi. Men bilan birga ishlaydigan dugonamning olti yashar bolasi bor, uni uyda qoldiradi, lekin boshqa erga ko'chganlari uchuymi, iqlim o'zgarishi tufaylimi, yo doim yolg'iz qolganidanmi, qizaloq tez-tez kasallana boshladidi. Bundan kelib chiqib, dugonamning asabi buzildi, vrachlardan va doriga pul kerak bo'lardi, va mudom uning vaqtini

yo'q edi. Bu holatda maslahat berish qiyin. Shunchaki shunday bo'lishini ham aytmoqchiman (Toktaim).



Agar bolalariningizni maktabga olishmasa, POHO – rayon maorif bo'limiga qo'ng'iroq qilish zarur. Lekin bolalariningizni maktabga berish uchun siz Rossiyada qonuniy bo'lishingiz zarur (Yuliya)



Faqat ota-onalargina bolani bog'cha yo maktabga yozdira olish huquqiga egadirlar, boshqa biron-bir qarindoshi bunday qila olmaydi (Shahnoza)



Agar sizda yashash huquqi bo'lsa yo siz vatan-dosh bo'lsangiz, unda bolalar byudjetda o'qish uchun kollej yo institutga kira oladilar. Shuningdek chet eliliklilar uchun bepul oliy ma'lumot olish uchun kvotalar ham mayjud (Iskandar).



Men yaxshi ishga joylashish va bizning sharoitimizga tushmasliklari uchun bu erda tuzuk ma'lumot olish, kasb egallash uchun intilishlari zarur deb o'ylayman (Mavluda).



Qonunga ko'ra Rossiya fuqarosi bo'lmagan bolalar ishlay olishmaydi. Shuning uchun agar siz, masalan 16-17 yashar bolangizni o'zingiz bilan olib kelsangiz, uning ishlashi noqonuniy bo'lishini biling (Bahor).



Agar hali siz Rossiyada ayniqsa, joylashib olma-gan bo'lsangiz, bolalar bilan qiyin bo'lishidan ogohlan-tirmoqchiman. Men avvaliga xotinim va qizimni olib kel-gandim, ular bir yildan so'ng uyrtimizga qaytib ketishdi. Bolalar uchun vaqt topa olmaysiz. Agar o'zingiz oyoqqa mahkam turib olgan bo'lsangiz, bolalarni Rossiyaga olib kelish mumkin. Yo'qsa, bolalar azob chekishadi va o'zin-giz ham qiynalasiz (Daler).



Bu erda bolalarning rus mакtablarida o'qishlari ancha qiyin. O'qish programmasi qiyin bo'lib, biznikidan farq qiladi. Ular ko'pincha rus tilini yaxshi bilishmaydi. Shu sababli boshqa fanlarni o'zlashtirishga ham qiynali-shadi. Bunday bo'lmasligi uchun, bolalaringizni qo'shim-cha tarzda rus tilida o'qitishga to'g'ri keladi, kurslarga berish yo repetitor sug'ullanishi kerak. Agar siz Rossiya-da uzoq qolishni rejalashtirsangiz yo kelajakda bu erda yashashni istasangiz, unda bolalaringiz avval-boshdan rus tilini yaxshi organizhsin. Agar shunchaki pul ishlab, so'ng uuga qaytib, u erda hayotiningizni yo'lga qo'yishni istasangiz, unda, balki, bolalarni u mamlakatdan by mamlakatga sudrab, sarson qilishning hojati yo'qdir (Zaxina).



TAHLILCHI SHARHI

Rossiyaga yosh bolalar bilan kelar ekansiz, ularni bo-lalar bog'chasiga rasmiylashtirishdagi uchrashi mum-

kin bo'lgan barcha qiyinchiliklarda tayyor turing. Katta shaharlarda bolalar bog'chalaridagi joylar cheklangan. Bolalarni oldindan yozdirib qo'yish zarur, lerin bunday holda ham hammaga joy etmaydi.

Maktab ta'limiga kelganda esa, Rossiya qonunlariga ko'ra, u majburiy bo'lib, bundan kelib chiqqan holda, maktab yoshidagi hamma bolalar mакtabga borishi shart. Shu bilan birga 18 yoshga kirmagan chet ellik fuqaroga ishslash taqiqlangan.

Sizga maktabga qabul qilishni rad eta olishmaydi. Faqat maktabda o'rин bo'lmasa, rad etishlari mumkin. Bu holda bo'sh o'rinalar mavjud bo'lgan boshqa maktabni tavsiya etishadi.

Agar siz bolani maktabga berishda qiyinchilikka uchrasangiz, unda siz registrasiyadan o'tgan erdag'i rayon maorif bo'limiga— POHOga qo'ng'iroq qilishingiz mumkin.

Maktab programmasi keskin farq qilishi mumkin. Agar bolangiz rus tilini tuzukroq bilmasa, u o'qiyotgan paytda bu qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Bunday holda unga o'qish osonroq bo'ladigan nisbatan quyi sinfga o'tkazishsa, qarshilik ko'rsatmang.

Unutmang, bolangiz o'z yurtidagiga qaraganda, bu erda ko'proq qo'llovga muhtoj bo'ladi. Uni to'lqinlan-tiradigan mavzularda suhbatlashishga vaqt toping, u qanday o'qiyotgani bilan qiziqib turing. Sinf rahbari bilan muloqotda bo'lishga intilimg va ota-onalar yig'ilishiga borib turishdan tortinmang.

Bolaga moslashish uchun turli o'quvdan tashqari mashg'ulotlar yordam berishi mumkin. Bular to'garak yo seksuya, til o'rganish kurslari, yoshlар uchun turli xil

tadbirlar bo'lishi mumkin. Bunday mashg'ulotlar tez va oson moslashib ketishga, yangi do'stlar topishga va moslashish hayajonlarini bosishga imkon beradi.

Maktab yoshidagi va maktabgacha yoshdagi bolalarning kelishi – «xususiy», u bolaga Rossiya kelgan paytidan boshlab, har yarim yil davomida 90 kecha-kunduzdan ko'p bo'limgan muddatda turish imkonini beradi. Agar bola bolalar bog'chysi yo maktabga borsa –uning muhojirlik qaydi(registrasiya)ning amal qilish muddatini patent bo'yicha ishlayotgan otasi yo ohasi yoki har ikkovining registrasiyasining amaldagi muddatiga ko'ra uzaytirish mumkin, lekin 3 oydan ortiq emas. Bola registrasiyasini uzaytirish uchun, siz registrasiyidan o'tgan erdag'i УВМ ГУ МВД России ga murohaat etish va quyidagilarni taqdim etish zarur:

- bolaning maktabda o'qishi haqidahи hujjatlar (ma'lumotnomasi);
- ishslash uchu patent to'lovi borasidagi chek-kvitansiyalar;
- bola va ota-onaning muhojirlik qaydiga qo'yilganligi borasida bildiruv – hammalari bir manzilda.

Agar bola rus tiludagi ta'lim maktabida o'qishga tayyor bo'lmasa, rus tiluni yomon bilsa, rus bolalari bilan qiynalib suhbatlashsa, ayrim mintaqalarda ijtimoiy tashkilotlarga murojaat etish va zarur qo'llov olish mumkin. Volontyorlar bolalar bilan ta'lim mashg'ulotlari o'tkazishadi, hordiq va madaniy dastur tashkil etishadi, bolalarga rus jamiyatiga moslashib ketishga ko'maklashishadi.

Foydali muloqotlar yo'llari:

Agar maktabga qabul borasida muammo chiqsa,
Комитет или Департамент по образованию ga murojaat etish mumkin – u har bir mintaqada mavjud:

Sankt-Peterburg: 8 (812) 576-20-19, 8 (812) 576-18-36,
8 (812) 576-18-76, 576-18-74.

Leningrad viloyati: 8 (812) 611-44-90

Moskva: <https://www.mos.ru/feedback/reception/>

Moskva viloyati: 8 (498) 6021027

<https://open.edu.gov.ru/appeals/e-send/>

Министерство просвещения РФ ga electron shikoyatlar uchun

Минпросвещения России - <https://open.edu.gov.ru/appeals>, +7 (495) 587- 01-36

Многофункциональные центры предоставления государственных услуг (МФЦ)

Bolalarni bolalar bog'chasi yo maktabning birinchi sinfiga yozdirish uchun МФЦ ning “qaynoq tarmog'i” telefoni:

• Sankt-Peterburg sh.: 8 (812) 573-90-60; <https://gu.spb.ru/mfc>; Leningrad viloyati: 8 (800) 500-00-47, <http://mfc47.ru>

• Moskva sh. : 8 (495) 777-77-77; <https://md.mos.ru>; Moskva viloyati : 8 (800) 550-50-30, <https://uslugi.mosreg.ru>

Bola huquqlari buzilgan holatda, shuningdek

Уполномоченному по правам ребёнка ga murojaat etish mumkin

- Уполномоченный по правам ребенка в РФ - deti.gov.ru
- Sankt-Peterburg: spbдети.org , 8(812) 576-70-00
- Leningrad viloyati: 47дети.ru , 8 (812) 400-36-49
- Moskva: ombudsman.mos.ru, 8 (495) 957-05-85
- Moskva viloyati: detimo.mosreg.ru , 8 (498) 602-32-07

RF mintaqalaridagi volontyorlik tashkilotlari

Volontyorlar bolalar bilan ta'lim mashg'ulotlari o'tkazishadi, hordiq va madaniy dastur tashkil etishadi, bolalarga rus jamiyatiga moslashib ketishga ko'maklashishadi.

- Sankt-Peterburgda:

АНО «Дети Петербурга»

<http://detipeterburga.ru/> telefon: +7 911-773 7787

Tashkilot qoshida Yoshlar markazi faoliyat yuritadi.

- Moskva va Podmockoveda:

Qochqin-bolalar uchun moslashuv va ta'lim markazi
«Такие же дети»

kidsarekids-center.com

- Moskva viloyati:

«Ковчег» tillar maktabi

<http://pereletnye-detи.ru/>

VAQTINCHA YASHASHGA IJOZAT (РВП)



Agar RVP rasmiylashtiradigan bo'lsangiz, vositachilarga murojaat etmang, hammasini o'zingiz qiling, bunda sizning imkoniyatlaringiz ortadi, sizni alday olishmaydi, va pulingizni asrab qolasiz. Vositachilarga murojaat etmaslik uchun esa, o'zingiz o'qishingiz va tushunib olishingiz, boshqa odamlardan co'rashga tortinmaslik kerak. Men kvota bo'yicha RVP olishga muvaffaq bo'ldim. Lekin bu ocon emas, hamma ham muvaffaq bo'la olmaydi. Juda

oz kvota beriladi, navbat eca, katta. Lekin urinib ko'rish mumkin, balki omadingiz chopib qolar (Roza).



Kvotasiz RVPni Possya fuqarosi bilan turmush qurib olish mumkin. Bu PBII sizning eringiz yo xotiningiz qayddan o'tgan mintaqada amal qiladi. U erda yashsah va ishslash uchun mustaqil ravishda boshqa mintaqaga ko'chib o'tishingiz mumkin emas. Bunday holatda PBII ni bekor qilishlari mumkin. Lekin biz boshqa mintaqaga ko'chib o'tish zarur bo'lgan vaziyatga uchradik. Buning uchun muhojirlilik masalalariga oid boshqarmaga murojaat etishga, ko'chish haqida ariza yozishga va boshqa mintaqada yangi PBII olishga to'g'ri keldi (Kirill).



TAHLILCHI SHARHI

Agar siz Possiuada tez-tez va uzoq bo'lsangiz, bu erda yanada uzoqroq muddatda qolish haqida o'ylashingiz mumkin. Vaqtincha yashashga ijozat (PBII) sizga shunday imkoniyat beradi.

PBII uch yillik muddatga beriladi. PBII uning amal qilish muddatida Rossiyada qonuniy yashash va ishslash imkonini beradi. PBII bo'lsa, patent rasmiylashtirish talab etilmaydi. PBII sog'lijni caqlash xizmatlaridan bepul foydalanish imkonini beradi, bining uchun OMC polisini olish talab etiladi.

Unutmang, RVP Rossiya qonunchiligi buzilgan holda, javobgarlikdan xalos etmaydi. Muhojirlilik qonunchiligi

buzilgan holda, shuningdek ma'muriy hyquqbazarlikda uning maqomi yoqolishi mumkin.

Ehtiyot bo'ling – РВП rasmiylashtirish uchun vosi-tachilarga murojaat etmang. Ular РВП berish haqida qalbaki muhrlar yashashi; qalbakilik aniqlangan holda Sizni qasddan soxta hujjatlar tayyorlashda ayblashlari va 6 oy muddatga qamoqqa olishlari mumkin (УК РФ ning 327 m. 3 q.) – Sizga RF fuqaroligini olish yo'li yopiladi!

РВП rasmiylashtirish uchun ariza yozish yo electron ko'rinishda ariza yuborishingiz mumkin. Bu jarayon bilan tanishish uchun mazkur saytdan foydalanish mumkin: www.gosuslugi.ru.

RFda turishga ijozat olgan chet ellik fuqaro RFning РВП rasmiylashtirilgan mintaqasida doimiy yashashi va ishlashi zarur, shuningdek muntazam ravishda – ya-shayotganidan navbatdagi yil o'tganidan co'ng, 2 oy davomida (hujjatlar bilan asoslangan uzrli sabablar bo'lsa – navbatdagi yashash yili o'tganidan co'ng 6 oydan kechiktirmasdan) –территориальный отдел Главного управления по вопросам миграции МВД РФ ga Pos-siya Federasiyasida yashayotganini tasdiqlovchi bildiruv va RFda olayotgan daromadi miqdori va manbasini tas-diqllovchi hujjatlarni yuborishi zarur.

Foydali muloqotlar yo'llari:

<http://migrussia.ru/> - Siz «Регионы» bolimida Rossiyada yashayotgan mintaqangizni topishingiz va «Оформление РВП» bo'limini tanlab, РВПни qanday rasmiylashtirihni bilib olishingiz mumkin.

РВП berish uchun ariza topshirish tartibi va buning uchun zarur hujjatlar, jumladan, arizalar va bildiruvlar

namujalari haqida bat afsil ma'lumotlarni Главного управления по вопросам миграции МВД России dan bilib va ko'chirib olishingiz mumkin – www.mvd.ru/Del-jatelnost/emvd/guvm/qaqtincha – yashash- uchun- ijozat

RF FUQAROLIGI



Vatandoshlarni ko'chirish – bu, Rossiyada qolish va fuqarolik olishni istaydigan kishilar uchun eng ocon va tez yo'li bo'lsa kerak. U haqda bilib oling, balki to'g'ri kelib qolishingiz mumkin. Bu dasturda faqat ruslargina qatnashib qolmaydilar. Faqat bu dastur bo'yicha Moskva yo Peterburg kabi shaharlarga ko'chib o'tish mumkin emas, ko'plar esa, aynan shu shaharlarga borishni istashadi (Aydan).



Ehtiyyot bo'ling, chunki agar huquqbuzarlik qilgan bo'lsangiz, sizning maqomingizni bekor qilishlari mumkin. Masalan, agar siz taksichilik qilsangiz, yo'lda ikki marta qoidani buzsangiz – bu qiyin emas. Kirishga taqiq qo'yishlari mumkin, keyin PBП va hatto ВНЖ ni bekor qilishlari mumkin. Va agar siz o'z vaqtida jarmo to'lagan bo'lsangiz, hammasi yaxshi va muammo hal bo'ldi, deb o'ylamang (Amirjon).



Vatandoshlarni ko'chirish dasturiga oid maslahatlar berishim mumkin. Birinchidan, o'zingiz tanlagan mintaqaga oldinroq etib borishingizni maslahat bera-

*man. Hech qanday tasvirlash, hech qanday hikoyalarni
sipga u erda ishlay va yashay olishingizni tushunish va
his qilish imkonini bermaydi. Yaxshisi, hammasini o'z
ko'zingiz bilan ko'rmoq, u erga bormoq, odamlar bilan
muloqotda bolmoq, o'sha arning havosidan nafas olmoq
muhimdir. Ikkinchidan, u erdag'i mehnat bozori holatini
o'rganing, asosiy tarmoqlar qaysi, qaysi mutaxassislariga
talab bor, qancha ish haqi beriladi. Agar siz biron ish
joyiga borayotgan bolsangiz, bu u erda bir umr ishlay-
siz degani emas. Uchinchidan, agar siz dasturda ko'z-
da tutilganidek, bu mintaqada uch yil yashashga ishon-
masangiz, oyoqqa turib olish uchun beriladigan pul va
to'lov olishga shoshilmahg – agar sizning mintaqadan
muddatidan oldin ketishingizga to'g'ri kelsa, ularni qa-
ytarishga to'g'ri keladi. To'rtinchidan, o'z mamlakatin-
gizda turib ariza yuborganingiz, o'sha arning o'zida
PBII va boshqalarni qilish arzon va qulay. Lekin bu ko'p
vaqt oladi (Vladimir)*



TAHLILCHI SHARHI

Rossiya fuqaroligini olishning standart yo'li quyidagi tarzda: vaqtincha yashsash – yashsash uchun huquq olish – RF fuqaroligini olish.

Umumiy tartibda RF Prezidenti qaror qabul qila-di, soddalashtirilganda –RF sub'ektlari bo'yicha bosh управлениy по вопросам миграции МВД РФ ning hududiy maqomotlari.

RF fuqaroligini qabul qilishning asosiy shartlaridan

biri (ya'ni yashash uchun huquq bo'lganda) Rossiya hududida 5 yil davomida tanaffussis yashashdir. Chet ellik kishilarning ayrim toifalari uchun yashash muddati 1 yilga qisqartiriladi, yo bu shart umuman bekor qilinadi.

Chet ellik fuqarolarning ayrim toifalari uchun Rossiya fuqaroligini olishning soddalashtirilgan tizimi nazarda tutilgan.

Umumiq tartibda ham, soddalashtirilgan tartibda ham, qabul qilinayotganda quyidagi omillarga alohi-da e'tibor qaratish zarur:

- ariza beruvchining yashash uchun mablag'ining qonuniy manbai borligiga;
- xorijiy davlatning vakolatdor maqomotiga shaxsning mavjud boshqa fuqarolikdan voz kechish borasidagi ariza bilan murojaat;
- rus tilini bilish.

Foydali muloqotlar yo'llari:

Agar siz Rossiyaga ko'chib borishni va Rossiya Federasiyasi fuqaroligini olishni istasangiz, kelib chiqishigiz possiyalik bo'lsa, siz va sizning oila a'zolaringiz vatandoshlarni ko'chirishga oid davlat dasturidan foydalanishingiz mumkin. Davlat dasturida qatnashish 6 oy davomida Rossiya fuqaroligini olishni anglatadi. Davlat dasturi, RF mintaqalari, ko'chish shartlari va davlat qo'llovini olish haqida mufassalroq mazkur saytdan bilib olishingiz mumkin: www.aiss.gov.ru – «Sootechestvenniki» portali: RFga vatandoshlarni ko'chirishga oid davlat dasturi sayti.

<https://pereselenie.com/> RFning barcha mintaqalaridagi vatandoshlarni ko'chirishga oid davlat dasturiga bag'ishlangan БФ «ПСП-фонд» sayti.

<http://migrussia.ru/> - Siz «Регионы» bolimida Rossiyada yashayotgan mintaqangizni topishingiz va «Вступление в гражданство» bo'limini tanlab, RF da fuqarolikni qanday olishni, «Государственные программы» bo'limida esa, bu mintaqada vatandoshlar ni ko'chirishga oid davlat dasturi harakati haqida mufasal bilib olishingiz mumkin.

MAHALLIY AHOLI BILAN HAMKORLIK



O'zingizni Rossya jamiyatida qabul qilinganidek tuting. Agar siz katta shahardan kelgan bo'lsangiz, unda buni asosan tushunasiz, agar ovuldan kelgan bo'lsangiz, unda moslashish qiyin bo'ladi. Masalan, odam o'z ovulida ko'plarga zarur va hurmatli ekanligiga o'r ganib qolgan, katta shaharga kelganidan co'ng boshqa kishilardan shunday munosabat qilishlarini kutadi. Va u mahalliy odamlar bilan chiqishmaydi, o'zini yaxshi va tog'ri tuta olmaydi. Men bunday odamlarni ko'rdim va ularning o'zlarini bunday tutayotganliklarini olqishlamayman (Dilshod).



Bizda ruslar tushunmaydigan yoki ularga yoqmaydigan udumrimiz, urf-odatlارимиз bor. Xuddi shunday sizga ayrim rus urf-odatlari yoqmasligi mumkin. Bundan ziddiyat keltirib chiqarmaslik kerak. Turli odamlar turlichcha yashashlarini bilsak bo'ldi (Nuriddin)



Men mahalliy aholi bilan yaxshi munosabatda bo'laman, bu borada menda hech qanday muammo kelib chiqmaydi. Buning sababi mening rus maktabida o'qiganim, ruscha kitoblar o'qiganim, rus tilida kino va ko'r-satuvsular korganim, ya'ni menga rus muhiti, rus madaniyati tanish va tusunarli bo'lganida deb o'ylayman. Agar siz Rossiya, rus madaniyati haqida nimalardir o'qigan bo'lsangiz, unda sizga mahalliy aholi bilan munosabat qilish oson bo'ladi (Farrux).



Agar sizga ko'chada yoqmaydigan nimadir deyishsa, unga e'tibor bermang. Hamma erda, hamma millatlar orasida tarbiyasiz odamlar bor. Muhimi – o'zingizni munosib tuting (Latifjon)



Rus kishilarini bilan suhbatlashadigan umumiy mavzularimiz bor. Biz umumiy mamlakat – Sovet Ittifoqida yashaganmiz, uni bunyod etganmiz. Biz fashizmga qarshi urushda birgalikda kurashganmiz. Bu umumiylilik haqida ko'proq eslash, ular haqida ko'proq gapirish zarur (Sobirjon).



Men sartarosh bo'lib ishlayman, bizga keksa onaxonlar tez-tez kelib turishadi, chunki arzon haq olamiz. Men ular bilan yaxshi muomalada bo'laman, ataylab mening xizmat qilishimni istab keladiganlar bor. Men ularidan Rossiya hayoti haqida ko'p narsa

bilib oldim. Hatto birida mijozlarimdan biri menga turar-joy topib berishga yordamlashdi. Odamlar bilan muomala qilishdan o'zingizni olib qochmang, cho'chimang (Zaxina).



TAHLILCHI SHARHI

Dunyoda turli xil madaniyat va udumlarning bo'lishi muammo emas. Agar hamma odamlar bir xilda o'ylashganda, bir xil kiyinishganda, bir xil bayramlar o'tkazishsa va bir xilda ovqatlanishsa, dunyo juda zerikarli bo'lardi.

Notanish udum va urf-odatlarni, hatto ular siz uchun tushuniksiz bo'lsa-da, dushmanlarcha qabul qilmang. Boshqa udumlar va boshqacha yashash usullari bilan tanishish imkoniyatidan foydalaning. Kuzatuvchan bo'ling, ular bilan munosabatni, yoki qaysi vaziyatlarda qanday munosabatda bo'lish qanday qabul qilinganini o'rganing.

Mahalliy aholi bilan muomala qilishga intiling, yaqinlaringiz va hamkasblaringiz-muhojirlar davrasida biqinib qolmang.

Agar siz salbiy munosabatga duch kelsangiz, unga xotirjam qarashga intiling. Odatda, salbiy munosabat mahalliy aholining muhojirlar bilan shaxsan muomalada bo'lmasliklari, xabarlarni esa, ko'pincha ommaviy axborot vositalaridan o'qishlari sababli yuzaga keladi, matbuotda esa, muhojirlar ko'pincha salbiy ruhda tasvirlanadi. Siz o'zingizni samimi tutib, ochiqko'ngillik bilan, yaxshi munosabatda bolib, bu tasavvurga barham berishingiz mumkin.

Qo'shnilar bilan salomlashing, ular bilan uchrashganda tabassum qiling, do'stona kayfiyatda ekanligingizni ko'rsating. Keksalarga yordam taklif eting, bolalar aravachali ayollarga ko'maklashing— hatto kichik e'tibor korinishlari ham siz haqingizda yaxshi taassurot uyg'otadi. Qo'shnilar bilan ziddiyatga bormang. Hatto arzimas kelishmovchilik ham ko'ngilsizliklar sababi bo'lishi mumkin, masalan, qo'shnilar tomonidan polisiya chaqirilishiga.

Naqliyoida ovqat eyish uo baland ovozda gapirish, ko'chada pivo ichish, chiqindi tashlash hurmatsizlik va yomon odad sanaladi. Naqliyoida va lamoat joylarida eoshi ulug' kishilarga joy bo'shatib berish qabul qilingan;

Shahar madaniyati har bir kishining shaxsan turgan eriga hurmat bilan munosabatda bo'lishni olqishlaydi. Shaxsan turgan erga daxl etish, masalan, tanishishga urinmoq, o'ta yaqin bormoq, boshqa odamning ijozatini olmasdan gap tashlash, taklifsiz uyga kirish yaxshi emas, bu atrofdagilarning norosiligini uyg'otadi. Hurmat bilan munosabatda bo'lish va tirg'almaslik meyor sanaladi.

Rossiya – dunyoviy davlat : diniy yurish-turishni namoyish etish yoki ibodatxonalar, masjid va diniy jamoatlar dan tashqarida va diniy bayramlardan boshqa kunlarda axloq, kiyim, to'g'ri xulq haqidagi qarashlarini bayon qilish g'alati tuyuladi va ko'pchilik tomonidan olqishlanmaydi.

Rossiya –ayollar va erkaklar tenghuquqligi tan olingen mamlakat. U qonun bilan qo'riqlanadi. Ayollar chiroyli kiyinshni yaxshi ko'rishadi, o'zlarining go'zalligini korsatish – bu, mustaqillik namoyishi bo'lib, aslo tanishish uchun tayyor turish degani emas. Ko'chada tanishish qabul qilinmagan.

Rossiyada bolalar, og'il bolalar ham, qizlar ham, maktabda ta'lim olishlari shart, keyin esa, istagiga ko'ra, kollej yo universitetda ta'lim oladi. Bolalar mehnatidan foydalanish, ularga uydagi og'ir yumushlarni yuklash va ota-onalarining ish joylarida ularga yordamlashishlari qabul qilinmagan.

Ko'chilik possiyaliklar do'stona munosabatda bo'lishlari, qiyin vaziyatda yordamga shayliklari, savollarga javob berishlari bilan ajralib turishadi. Rossiyaga tez moslashib ketish uchun, Sizga mahalliy aholi bilan ko'proq muomalada bo'lishni, do'stlar orttirishni, bayramlarda qathashishni, kino, muzey, teatr, kutubxonalarga borishni, rus tilini o'rganishni tavsiya etamiz.

MADANIYAT BA HORDIQ



Agar bunday imkoniyat bo'lsa, ba'zan ishdan cha lg'ing. Biz bolalar bilan sport zaliga, kinoga boramiz, shaharda sayr etamig, shahar bayramlariga qatnashamiz. Peterburg – juda chiroyli shahar, bu erda qiziqarli joylar ko'p (Olim).



Men taksichilik qilaman, shu kasbim tufayli Peterburgdagi juda ko'p qiziqarli va chiroyli joylarni bilib oldim, odamlardan turli joylar haqida so'rab oldim. Endi ular haqida boshqalarga hikoya qilib berishim mumkin (Latifjon).



Agar biz qaergadir boradigan bo'lsak, odatda muhojirlar turgan erga, choyxonaga yo'l olamiz. Puslar ham boradigan joylarga borish zarur, deb o'ylayman. O'z odamlaring bilan o'zingni erkin, engil his qilasan, o'zingni qanday tutishni va nimalar haqida so'zlashni bilasan. Lekin sen har doim ham o'z davrangdagilar bilan o'tirib-turaversang, mudom yaxshi bo'lavermaydi (Zaxina).

Sankt-Peterburgga o'xshash katta shaharlarda juda ko'p bayramlar va turli tadbirlar o'tkazib turiladi. Bepul va uncga qimmat bo'limgan tadbirlarni topish mumkin (Mavzuna)



TAHLILCHI SHARHI

Iloji boricha faqat ish, uyda bo'lish va qarindoshlarningiz va yurtdoshlaringizning tor doirasi bilan qanoatlanib qolmang.

Madaniy-dam olish tadbirlarida qatnashish yangi sharoitlarga tez moslashib ketish, dunyoqarash va muloqot doirasini kengaytirish imkonini beradi, ko'chish va tig'iz ish bilan bog'liq toliqish, hayajonni kamaytiradi. Bunday tadbirlarda siz faqat Rossiya xalqlari madaniyatni va an'analari bilan tanishibgina qolmasingizdan, balki vaqtingiz ham chog' otadi.

Foydali muloqotlar yo'llari

<https://www.culture.ru/> - «Культура.РФ» — Rossiya Madaniyat vazirligining insonparvarlik ma'rifiy loyihasi. Portalda adabiyot, me'morchilik, musiqa, kino, teatr tarixidagi qiziqarli va muhim voqealar, odamlar, shuningdek xalq an'analari va bizning tabiatimiz yodgorliklari haqida ma'rifiy maqolalar, xabarlar, suhabatlar, testlar, yangiliklar mavjud va radio-hikoyalari bor.

<https://histrf.ru/> - «История.РФ» Federal portalı, bu erda tushunarli tilda o'tmishdagi fakt va voqealar qo'yilgan. Tarixdan taniqli olimlar va o'qituvchilar so'zlab beradigan audio va videoleksiyalar joylashtirilgan ta'limiy-ma'rifiy shakl, kasbiy tarixchilardan dastlabki Rossiya internet-qomusi, rus tarixidan suratlar va “eng muhim hujjatlar” tahlili va boshqa ko'plab loyiham.

<https://russia.travel/> - milliy sayyoqlik portalı Russia. travel – Turizm bo'yicha federal agentlikning Rossiyda sayohatga bag'ishlangan axborot- ma'rifiy loyihasi. Sayt 29 mingtadan ortiq diqqatda sazovor joylar bilan tanishtiradi, unga tarixiy-madaniy meros ob'ektlari, tabiat yodgorliklari va qo'riqxonalar, an'anaviy hunarmandchilik mahsulotlari va taniqli possiya brendlari kiritilgan.

RFning qator mintaqalarida mehnat muhohiirlariga yordamlashish uchun madaniyat, tarix va mintaqaga an'analari borasidagi foydali xabarlar mavjud rasmiy axborot resurslari yaratilgan:

- migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru – Sanlt-Peterburg Hukumatining «Добро пожаловать в Санкт-Петербург!» sayti

RF mintaqalari madaniyati va dam olish hayoti bilan tanishish uchun shuningdek afisha.ru и kudago.com mintaqaviy portallaridan foydalanishni tavsiya etamiz.

QALTIS HOLATLARDA BEPUL YORDAM UCHUN QAERGA MUROJAAT ETISH ZARUR

Yagona zudlik bilan yordam tahmog'i - 112 (oddiy va mobil telefondan) –hayot va salomatlik uchun xavf tug'ilgan favqulodda holatlarda

Ijtimoiy tashkilotlar

«ПСП-фонд» Xayriya jamg'armasi (Sankt-Peterburg sh.) (mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolariga huquqiy yordam)

www.migrussia.ru vk.com/pspfond

Tel. +7 953 141 31 09, +7 (812) 3375785

Комитет «Гражданское содействие» (Moskva) (qochqinlar va muhojirlarga yordam) refugee.ru

tel: +7 (495) 681 18 23, +7 (495) 681 15 32,

+7 (495) 681 09 54, +7 (495) 681 05 27

- hafratga ko'ra hujum qilingan holatda

tel.: +7 903 577 55 87

Jinsiy zo'ravonlikni boshidan kechirganlarga yot-dam ko'rsatish xayriya markazi (Moskva sh.)

ishonch telefoni: +7 (499) 901 02 01

sayt: sisters-help.ru

«Альтернатива» ijtimoiy harakati – volontyorlik tashkiloti, odam savdosi qurbanlariga yordam va qo'qol-

gan odamlarni qidirish bilan shug'ullanadi <https://protivrabstva.ru>

“Qaynoq tarmoq”: 8 (800) 550-71-40

«Безопасный дом» jamg'armasi (Moskva sh.) – jinsiy va oilaviy zo'ravonlik, odam savdosi qurbanlariga yordam.

<https://safehouse.foundation>

“Qaynoq tarmoq” telefoni: +7 926 073 95 75

«Миграция и право» huquqiy tarmog'i

sayt: migrant.ru/spisok-punktov-priema-po-gorodam/

Davlat maqomotlari

Полиция – <https://mvd.ru/>

**Главное управление по вопросам миграции
МВД России** - <https://gum.mvd.ru/>

Федеральная служба безопасности РФ – <http://www.fsb.ru/>

Генеральная прокуратура РФ – <https://genproc.gov.ru/>

Следственный комитет РФ – <https://sledcom.ru/>

Роструд – <https://www.rostrud.ru/>

Уполномоченный по правам человека РФ -
<http://ombudsmanrf.org/>

Росздравнадзор – <https://roszdravnadzor.ru/>

Роспотребнадзор - <https://www.rosпотребнадзор.ru>

Nashrga tayyorlashda «ПСП-фонд» xayriya jamg' armasiga maslahat berishni so'rab murojaat qilgan muhajirlarning maslahatlari, shuningdek internet-resurslardan foydalanildi:

Muhajirlar va ularning ish beruvchilari forumi <http://forum.legallabor.ru/>

Chet ellik fuqarolar forumi <https://forum.migrantmedia.ru/>

Chet ellik fuqarolar va ish beruvchilar uchun forum <http://forum.migranto.ru/>

«Domoy v Rossiyu» ko'chib keluvchilar forumi <https://back2russia.net/>

Мигранты советуют мигрантам
Полезные советы о жизни и адаптации в России
Выпуск 2
(на узбекском языке)

Подготовка текста:
БФ «ПСП-фонд»

Авторы-составители: Ефимова О.Б., Якимов А.Н.
Редактор: Панич Б.Л.

Контакты:
БФ «ПСП-фонд»
(бесплатная консультационная помощь мигрантам,
членам их семей
и работающим с ними специалистам)
Телефон: +7 (812) 337-57-85
Электронная почта: bp@psp-f.org
Сайты: www.psp-f.org, www.migrussia.ru

Публикация подготовлена в рамках проекта
«Межрегиональный ресурсный центр по адаптации и
интеграции мигрантов и гармонизации межнациональных
отношений», реализуемого при поддержке
Фонда президентских грантов.

Подписано в печать:
Тираж 1000 экз. Заказ №
Отпечатано в типографии “L-PRINT”
192007, Санкт-Петербург,
Лиговский пр., 201, лит. А, пом. 3Н.

